

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«Servis va turizm» fakulteti

«Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrası

«Himoyaga tavsiya etildi»
“Xalqaro turizm va turizm
servisi” kafedrası mudiri,
i.f.n. Amriddinova R.S.

Bayonnoma № 10 2014 y. 26 май

**5811700 - «Turizm va mehmonxona xo‘jaligi servisi»
*ta’lim yo‘nalishi***

TMS-110 guruh talabasi Asadov Mirjalolning
«Мехмонхоналарда миллий кийиниш маданияти ва дизайни намоёишини
ташкил этиш («Bo`stonsaroy» мехмонхонаси мисолида) mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar И.ф.н Амриддинова Р.С.

SAMARQAND – 2014

Mundarija

Kirish.....	5
1- Bob. Mehmonxonalarning turizm sohasini rivojlantirishda tutgan o‘rni.....	6
1.1. Mehmonxonalarning rivojlanishi tarixi.....	6
1.2. Mehmonxona sohasidagi asosiy tushunchalar va mavjud me‘yoriy hujjatlar.....	11
1.3. Hayot faoliyatida mehnat muhofazasining qonuniy asoslari	23
2- Bob. Milliy kiyinish madaniyati va dizayni tarixi.....	32
2.1. O‘zbek xalqining milliy kiyinish madaniyati va dizayni turlari....	32
2.2. O‘zbek xalqining milliy liboslarini tikishda ishlatiladigan matolar	42
3- Bob. Bo‘stonsaroy mehmonxonasida milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini tashkil etish.....	46
3.1. Bo‘stonsaroy mehmonxonasi faoliyatini o‘rganish.....	46
3.2. «O‘zbekim liboslari» nomli dasturni mehmonxonada tashkil etish	48
Xulosa.....	55
Tavsiyalar	56
Adabiyotlar ro‘yxati.....	58

Kirish

O'zbek milliy kiyinish madaniyati moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchidir. Kiyimlarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson umrining fasllari, u yashagan joy va zamon, xo'jalik ish mavsumlari, hayotidagi quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

Mehmonxonalarda turistlarning bo'sh vaqtini unumli tashkil etish hozirgi kunda mehmonxona rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lmoqda. Shu sababli mehmonxonalarda milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini tashkil etish nafaqat turistlarga zavq bag'ishlashi, balki mehmonxonaga qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Aynan shular bitiruv malakaviy ishi mavzusining *dolzarbligini* bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganish *ob'ekti* – respublikamizda turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi milliy kiyinish madaniyati va dizayni resurslaridir.

Bitiruv malakaviy ishning *maqsadi*- milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini yo'lga qo'yish orqali respublikamizda turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning *vazifasi* – milliy kiyinish madaniyati va dizaynini o'rganish va respublikamizda turizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilashdir.

Bitiruv malakaviy ishning *amaliy ahamiyati* – turizm sohasida milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini tashkil etishdan olingan natijalar asosida mehmonxonalar rahbarlari uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi: kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar va adabiyotlar ro'yxati dan iborat. Ishda jadval, rasmlar, adabiyotlar ro'yxati keltirildi. Ishning hajmibet dan iborat.

1 - Bob. Mehmonxonalarning turizm sohasini rivojlantirishda tutgan o'рни

1.1. Mehmonxonalarning rivojlanishi tarixi

Odamzod sayohat etishni boshlabdiki, jonajon uyidan uzoq manzilda tunab qolish va ovqatlanish zarurati paydo bo'ldi. Har bir talab o'z o'rnida taklifni uyg'otgani singari sayohatchilarning joylashtirish va ovqatlantirish muammosini hal qiluvchi korxonalar paydo bo'la boshladi. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu turdagi korxonalarning paydo bo'lishini qadimgi shumerlar tomonidan g'ildirakni ixtiro qilinishi davriga taqashadi. Ammo bizgacha yetib kelgan qadimgi Yunon va qadimgi Rim tavernalari va xospiteumlari haqidagi ma'lumotlar ishonchliroqdir. Shuni aytib o'tish joizki, o'sha davrlarda Rimliklar sayohatlarga o'ta berilgan edilar, hattoki Rim imperiyasidan juda uzoq manzillarga sayohat uyushtirar edilar. Misr ehromlarini ziyorat qilish ommaviy tus olgan edi. Shunisi e'tiborga molikki, qadimgi Rim imperiyasida hozirgi mehmonxonalar klassifikatsiyasiga o'xshash tizim mavjud edi: qadimgi Rim xaritalarida tunash uchun mo'ljallangan korxonalar toifasiga ko'ra turli shartli belgilar bilan ko'rsatilgan edi. Qadimgi mehmonxonalar haqidagi ma'lumotni Yevangeliyada ham uchratish mumkin: Iso Masih g'orda dunyoga keldi, chunki barcha mehmonxonalar liq to'la edi.

Ilk o'rta asrlarda sayohatlar havfli tus olishi munosabati bilan mehmonxona biznesi birmuncha oqsab qoldi. Ushbu davrlarda sayohatchilarning aksariyat qismi hozirgi kunda "din turizmi" deb nomlanmish yo'nalishda, dunyoning barcha burchaklaridan muqaddas ziyoratgohlarga sayohat uyushtirar edilar. Monastirlar tomonidan ziyoratchilarga (2 kungacha) bepul boshpana va ovqat berilar edi. Monastirlar, hozirgi kunda "mehmonxona zanjirlari" deb nomlanmish ilk tizimni eslatar edi.

Mehmonxonalarning dastlabki ko'rinishlari Yaqin sharq, O'rta osiyi, Kavkazorti mamlakatlarida mavjud edi. Mol ortilgan karvonlar bilan sayohatga chiqqan savdogarlar sahro va tog' yonbag'irlaridan o'tishgan. Ular odatda o'ziga

hos mehmonxona majmuidan iborat karvonsaroylar – tuyalar uchun qo'ton va atrofi devor bilan o'ralgan kishilar tunaydigan binoga tashrif buyurishgan.

Shunisi qiziqarlilik, o'sha davrlarda Sultonning farmoni bilan Konstantinopoldan sharq tarafga cho'zilgan hudud karvon saroylarida (ihtiyoriy dindagi) ziyoratchilarga 3 kungacha bepul boshpana, uch mahal ovqat, nochorlarga oyoq kiyim berilgan.

200 yil davom etgan “salb yurishlari” davrida Ierusalimga bo'lgan sayohatlar soni oshib ketdi. Buning natijasida avval shimoliy Italiyada, so'ngra boshqa davlatlarda mehmonxona biznesi vujudga keldi.

Mehmonxona xo'jaligida e'tiborga molik bo'lgan keyingi davr Yevropada doimiy pochta va transport tarmog'ining paydo bo'lishi bilan bo'g'liq (G'arbiy Yevropadagi dilijanslar, Rossiyadagi “yamskie stansiya”lar). Pochta trassalari bo'yida, hozirgi motellarga o'xshash korxonalar joylashgan edi. Lekin u yerdagi ahvol nihoyatda ayanchli edi. Bizgacha yetib kelgan joylashtirish qoidalariga ko'ra, poyafzalda uhlash va bir yotoqda 5 kishidan ortig'i yotishi man etilgan edi. Mehmonxonalar bir mamlakatdan ikkinchisiga olib boruvchi shaxarlar va yo'llarda joylashgan. Sayyohlardan tashqari bu mehmonxona xizmatlaridan choparlar, savdogarlar, hukumat xizmatchilari foydalanishgan.

Savdo aloqalarining rivojlanishi Yevropa mehmonxona xo'jaligining ancha o'sishiga olib keldi. Masalan, Italiyaning Milan shaxrida XIV asrdayoq 150 ta mehmonxona bo'lgan. Biroq bu mehmonxonalarda qulaylik bo'lmagan, ulardagi sanitar ahvol juda past darajada edi.

Hozirgi motellardan farqli o'laroq Yevropa yo'l bo'yi mehmonxonalari shuningdek mahalliy aholi uchun ko'ngil ochish maskani vazifasini ham bajarar edi. U yerda bo'sh vaqtni qimorli o'yinlarni (darts, domino, bilyard, ho'roz jangi) o'ynash bilan o'tkazish mumkin edi.

Mehmonxona ma'nosini anglatuvchi “otel” so'zi XVII asrda “restoran” tushunchasi bilan deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. Mashxur fransuz restoratori, fransuz taomlarini dunyo miqyosida tanitgan shaxs - Bulanjer “restoran” tushunchasining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Uning Parijdagi ovqatlantirish

korxonasi kiraverishida Lotin tilidagi “Kimning o’shqozoni g’amga botgan bo’lsa, kelaversin, men ularni tiklayman” degan yozuv osig’liq turar edi. Ushbu amonaviy tushuncha “tiklash “ ma’nosini anglatuvchi restaurabovos so’zidan olingan. “Otel” (Hotel) so’zi ham lotincha asosga ega bo’lgan xospiteums sozidan olingan. Avvallari otel deb, biror kvartirasi bir oy yoki bir hafta ,hatto bir kunga ijaraga beriladigan ko’p xonali bino atalar edi. Ushbu man’oda fransiyada ham ishlatilar edi. XVIII asrda Lamansh bo’gozidan otib, u o’zida hozirgi kundagi ma’nosini jamladi. Juda tez sur’atda ushbu atama Amerikaga ham kirib keldi. Jumladan, ko’pgina tavernalarning nomini otel deb o’zgartirishdi, chunki korxona boshliqlarining fikricha ushbu atama ovrupacha (fransuzcha) tarovatni berib turar edi.

Mehmonxonalar texnik jixozlanishiga keladigan bo’lsak, ko’pgina yangiliklar Amerika Qo’shma Shtatlarida yuzaga keldi. Ushbu davlatda mehmonxona xizmatlariga bo’lgan talab doimiy muhojirlar kelib turishi evaziga juda yuqori bo’lgan.

AQSHda mehmonxona biznesining jadal rivojlanishiga yana bir sabab bu Yevropadan farqli o’laroq ballar va “ommaviy tadbirlar” o’tkaziladigan zodagon qasrlarining mavjud bo’lmaganligidadir. Mehmonxonalar ana o’sha tadbirlar o’tkaziladigan joy edi. Ushbu maqsadda mahsus zallar qurilar edi. Mehmonxona zallarada raqsga tushish an’anasi AQSHda XX asrning 50-yillarigacha saqlanib qolingan. Uzoq davr davomida AQSHda mehmonxona biznesi ommaviy bo’lib keldi. AQSH prezidentlari D. Vashington va A. Linkoln taverna sohiblari bo’lganligini aytib o’tish buning izohidir.

Hozirgi qulfli eshik va (sovuni bilan) umivalnikga ega bo’lgan bir va ikki kishilik xonalar ilk bor 1829-yilda AQSHda paydo bo’lgan. Ushbu mamlakatda, XIX asrning o’rtalarida markaziy isitish tizimiga ega ega bo’lgan ilk mehmonxona faoliyat yurita boshladi. Lift va xonadagi vannalar ilk bor amerika mehmonxonalarida qo’llanilgan. Mehmonxona xonalarining zamonaviy jixozlanishi XX asrning boshlarida mashxur amerikalik mehmonxonachi Statler tomonidan shakllantirilgan. Shuningdek dunyodagi 6 qavatdan iborat, ilk

osmono'par bino ham amerika dagi otel bo'lgan. Ushbu davrlarda yevropada mehmonxona ishiga shveysariyalik Sezar Rits katta hissa qo'shdi, bugungi kunda ham eng mashxur mehmonxona zanjirlaridan biri uning ismi bilan ataladi. Ammo uning shaxsiy mehmonxonasi bo'lmagan, u shunchaki yollanma boshqaruvchi bo'lgan. Ritsning mashxur ihtirolaridan biri bu restoranlarda orkestrning paydo bo'lishidir. Ritsning davrida orkestr Shtraus asarlarini ijro etar edi. Musiqa taom tanovvul qilish jarayonini uzaytirar va ichimliklar sotishdan kelib tushadigan foydani oshirar edi. Shveysariyalik Rits va amerikalik Statler mehmonxona ishining ishqibozlari edi. Ular har bir ko'z ilg'amas ikir-chikirlarga e'tibor berishar edi. Jumladan, Rits uzoq vaqt otel restoranidagi xo'randa ayollarning taqinchoqlari ko'zni olar darajada yarqirashini ta'minlovchi yoritish ustida ishlagan(maneken sifatida o'z ayolini jalb qilgan). Statler esa vannaga suv to'lishi va unitazdad suv ketishi vaqtini hosoblab o'tirgan. Uning yana bir mashg'uloti – bu vannaga yotib olib santexnika tizimlarida qandaydir qo'pollik bor-yo'qligini kuzatish edi.

Statlarning sharofati bilan mehmonxona xonasida katta o'lchamdagi ko'zgu, yotoq yonida chiroq, eshik yonida chiroq yoqib-o'chirgich, telefon, yozuv qog'ozi paydo bo'ldi. Mehmonxona xodimlar uchun uniforma va mehmonxona qurilishida xonalarni juft-juft qilib, tikka tushgan santexnika quvurlariga nisbatan simmetrik joylashtirish evaziga harajatlarni kamaytirishni joriy etgan. Shuningdek hozirgi kunda hizmat ko'rsatishga ilmiy yondashuv asosini ta'minlovchi "Mijoz doim haq" shiorining muallifidir.

Statler va Ritsning faoliyati shunga asos soldiki yuqori sinfdagi mehmonxonalarga boy-badavlat insonlarning tashrif buyurishi ommaviylashdi. Misol uchun Ritsning Londondagi "Savoy" mehmonxonasidagi boshqaruvchilik faoliyati ingliz zodagonlarining odatlarini o'zgartirib yubordi: faqat erkaklar boradigan klublarga tashrif buyurish o'rniga , erkaklar o'z ayollari bilan otel restoranlarida ovqatlanadigan bo'lishdi.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Yevropa va Amerika yirik shaxarlarida muxtasham otellar ochila boshladi. Ular sayohatga chiqib vaqt o'tkazishni rusum qilgan, yangi millioner va mashxur insonlar uchun mo'ljallangan edi. Shunga

o'xshash mehmonxonalar Rossiyada ham ochila boshladi, misol uchun Moskvadagi – “Metropol” va “Natsional”, Peterburgdagi “Yevropa”.

XX asrning 20-yillarida nafaqat mijozlar, balki avtomobillarni joylash uchun mo'ljallangan, mehmonxona biznesi uchun yangilik bo'lgan motellar paydo bo'la boshladi. Motelning paydo bo'lishi Amerikada “T” modeli Fordlarni ishlab chiqilishi bilan boshlangan avtomobil sanoatining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Evropada esa motellar faqatgina ikkinchi jahon urushidan keyingina ochila boshladi.

Bugungi kunda jahonda 300 mingdan ortiqroq(motellarni hisoblaganda) mehmonxona mavjud. Ularning hilma-hilligini ta'riflashga til ojiz: bir qavatdan tortib 88 qavatgacha, suzib yuruvchi va suv yuzasidagi katta-kichik arzon (kuniga 15-20\$) va qimmat(kuniga bir necha ming dollar) mehmonxonalar mavjud.

XX asrning 50- yillaridan boshlab mehmonxona biznesida yangicha boshqaruv usullari joriy etildi. Ushbu davrgacha mehmonxona boshqaruvi juda ko'p o'ziga hosliklarga ega bo'lganligi uchun ishlab chiqilgan boshqaruvning ilmiy usullari qo'l kelmasligi ta'kidlanar edi.

Global kompyuterlashtirish mehmonxona biznesini ham chetlab o'tmadi, asta-sekin yirik mehmonxonalar kompyuterlar bilan jihozlana boshlandi. Turli bo'limlar uchun dasturlar yaratila bishlandi.

Urushdan keyingi paytlarda xalqaro mehmonxona zanjirlari ommaviylasha boshladi. Ilk mehmonxona zanjiri - Hiltonning vujudga kelishi “Pan Ameriken” aviatriansport kompaniyasining ochilishi bilan bog'liq. Lotin Amerikasi davlatlariga parvozlarni uyushtirar ekan kompaniya shunday to'xtamga keldiki ushbu davlatda amekalik biznesmenlar o'rgangan sharoitlar mavjud emas edi. Ushbu davlatlarda tegishli toifadagi, bir hil sifatdag mehmonxonalarni qurish fikri yuzaga keldi. Misol uchun Argentinadagi “Hilton” oteli, servis jihatidan Nyu-yorkdagi “Hilton”dan farq qilmasligi kerak edi.

1.2.Mehmonxona sohasidagi asosiy tushunchalar va mavjud me'yoriy hujjatlar

Mehmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, muayyan haq evaziga mehmonxona, motel, kemping, pansionat va boshqa joylashtirish vositalarida qisqa muddatli joylashtirishni tashkillashtirish bilan shug'ullanadi.

Joylashtirish vositasi deganda insonlarning vaqtinchalik yashashi uchun mo'ljallangan ixtiyoriy ob'yekt tushuniladi.

Mehmonxona bu turist va fuqarolarni vaqtinchalik joylashtirish hamda ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan korxonadir. Mehmonxonalarda kamida 10ta xona bo'lishi kerak.

Mehmonxonalar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- belgilangan miqdordan oz bo'lmagan xonalardan iborat, yagona boshqaruvga ega;
- turli hildagi mehmonxona xizmatlarini taqdim etadi;
- ko'satayotgan xizmatlari, ixtiyoridagi jixozlanish va davlat standartlariga ko'ra kategoriya va sinflarga ajratiladi;

Mehmonxona korxonalari hajmi, joylar va xonalar soniga ko'ra farqlanadi.

Nomer bu bir yoki bir necha o'rindan tashkil topgan, ushbu kategoriyadagi mehmonxonaga qo'yilgan talablarga ko'ra jihozlangan xonadir.

Joy bu bir kishi foydalanishi uchun mo'ljallangan yotoqli o'rindir.

Halqaro amaliyotda Jahon Turizm Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan joylashtirish vositalarining standart klassifikatsiyasi mavjud.

Unga ko'ra barcha joylashtirish vositalari 2 guruhga bo'linadi:

1. Kollektiv joylashtirish vositalari.
2. Individual joylashtirish vositalari.

Kollektiv joylashtirish vositalari o'z o'rnida mehmonxona tipidagi korxonalar va mahsus joylashtirish vositalariga ajratiladi.

Mehmonxona tipidagi joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi:

- Mehmonxonalar;

- Motellar;
- Joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan klublar;
- Pansionatlar;
- Mebellangan xonalar;
- Yotoqxonalar.

Mahsus joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi:

- Sanatoriyalar;
- Profilaktoriyalar;
- Dam olish uylari;
- Turist uylari;
- Tiristik,sport bazalari, dam olish bazalari;
- Ovchi (baliqchi) uylari;
- Kongres-sentlar;
- Kempinglar;
- Botellar;
- Flotellar;
- Rotellar;

Individual joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi:

Ijaraga beriladigan kvartiralar, kvartiradagi xonalar, uylar va kottedjlar.

Mehmonxona xo'jaligi sohasida ikkita asosiy me'yoriy hujjat mavjud.Bular:

1. “Turist-ekskursion hizmat. Mehmonxonalar klassifikatsiyasi”1998 yil, 918-98 raqami bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Standartidir.

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1997-yil 12-yanvarda 389-raqam bilan ro'yxatga olingan “O'zbekiston Respublikasida mehmonxona hizmatlarini ko'rsatish qoidalari”dir.

“Mehmonxonalar klassifikatsiyasi” Davlat standartida turli kategoriyadagi mehmonxonalarga qo'yilgan talablar ko'satilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatga ko'ra ihtiyoriy kategoriyadagi mehmonxona quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) Ihtiyoriy kategotiyadagi mehmonxona yol harakati ko'rsatgichlariga ega

bo'lgan qulay yo'laklarga, obodonlashtirilgan va yoritilgan hudud, avtotransportni(jumladan avtobusda) to'xtatish va qayriltirish mumkin bo'lgan qattiq qoplamali maydonga ega bo'lishi, korxona nomi va kategoriyasini ko'satuvchi yorliq, agarda restoranga alohida kirish eshigi mavjud bo'lsa uning nomi yozilgan ko'rsatgich mavjud bo'lishi kerak.

Agarda mehmonxona binoning bir bo'lagida joylashgan bo'lsa, alohida kirish yo'lagiga ega bo'lishi shart.

2) Mehmonxonaning arxitektura-rejalashtirish va qurilish elementlari, ishlatiladigan texnik jixozlar KMK 2.08.02-96 ga muvofiq bo'lishi kerak.

3) Mehmonxona yaxshi ekologik sharoitda bo'lishi kerak.

4) Mehmonxonada yashash davimida mehmonlarning hayoti va salomatligi havfsizligi, mulkning dahlsizligi ta'minlanishi kerak.

Binoda favqulotda chiqish yollari, zinapoyalar, mehmonlarning oddiy va favqulotda vaziyatlarda yo'naltiradigan, ko'zga tashlanadigan ma'lumotlar bo'lishi kerak.

5) Mehmonxona Yong'in xavfsizligi tizimlari, ogohlantirish va yong'inga qarshi kurash vositalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

6) Mehmonxonada sanitariya-gigiyena me'yorlari va qoidalariga amal qilinishi, chiqindilarni bartaraf etish, hashorot va kemiruvchilardan samarali himoyalaniish ta'minlanishi kerak.

7) Barcha elektr, gaz, suv ta'minoti va kanalizatsiya jihozlari "Mehmonxona va uning jihozlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari"ga asosan o'rnatilishi va ishlatilishi kerak.

8) Mehmonxona quyidagilarni ta'minlovchi muhandislik tizim va jihozlari bilan ta'minlanishi kerak:

- issiq va sovuq suv tizimi (tunu-kun)
- kanalizatsiya;
- umumiy fiy dalanish va yashash xonalarida 18,5 C past bo'lmagan haroratni ta'minlovchi isitish tizimi'
- havoning normal aylanishini ta'minlovchi va tashqaridan hidlarning kirib

kelishidan saqllovchi ventilatsiya.

- radiouzatishlar va televideniye;
- telefon aloqasi;

- honalarning yoritilishi: tabiiy (kamida bitta oyna), 100 lk yorug'likni ta'minlovchi oddiy lampalar yoki 200lk yorug'likni ta'minlovchi lyuminestsent lampalardagi sun'iy yoritish.

9) Yangi binolarni loyihalash yoki eskilarini qayta tiklash chog'ida aravachadan foydalanuvchi nogirirlarni qabul qilish va ularga hizmat ko'rsatish sharoitlari ko'zlanishi kerak.

“O'zbekiston Respublikasida mehmonxona hizmatlarini ko'rsatish qoidalari”ga ko'ra mehmonxona, yashash joyidan qat'i nazar fuqarolarning vaqtinchalik yashashi uchun mo'ljallangan, ijrochi va iste'molchi o'rtasidagi kelishuvga asosan 45 sutkadan oshmaydigan muddatga joylashtirish uchun mo'ljallangandir.

O'zbekiston Respublikasida tranzit vizali horijiy turistlar 72 soatgacha vaqtinchalik joylashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'luvchi horijiy turislarni joylashtirish muddati 3 oygacha cho'zdirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida MDH ishtirokchi-davlatlari fuqarolariga joylashtirish muddati 6 oygacha cho'zdirilishi mumkin.

Mehmonxonadagi xonalar fuqarolarga passport asosida, harbiy hizmatchilarga- harbiy guvohnomani taqdim etgan taqdirdagina berilishi mumkin. Belgilangan rasmiylashtirishdan so'ng hujjatlar egasiga topshiriladi.

Joylashtirish va hizmatlar uchun to'lov erkin (kelishilgan) narxlar asosida amalga oshiriladi.

Iste'molchi ko'rsatilgan hizmatda kamchiliklarni sezsa quyidagilardan birini tanlashi mumkin:

- yo'l qo'yilgan kamchilikni qo'shimcha haq olmagan tarzda bartaraf ettirishi;
- hizmatga haq to'lash jarayonida to'lovni tegishli miqdorda kamaytirish;

Iste'molchi ko'rsatilgan zararni qoplashni talab etishi mumkin.

Istemolchimehmonxonaning ichki tartib-qoidalariga amal qilishga majbur.

Ketish chog'ida ijrochiga ma'lum qilishi, to'lovni amalga oshirishi va kalitni topshirishi shart.

Ijrochi ro'yxatdan o'tkazish chog'ida yashovchilarni asosiy va qo'shimcha xizmatlar, ularni to'lash shakli va tartibi haqida ma'lumot berishi kerak.

Ijrochi saqlash kamerasidagi yashovcining shahsiy buyumlarining saqlanishini kafolatlashi kerak. Qimmatbaxo taqinchoqlar(oltin, platina, kumush, qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar) saqlashga qabul qilinmaydi. Saqlash kamerasiga topshirilmagan va yo'qotilgan pul, qimmatbaho qog'ozlar va qimmatbaho buyumlar shuningdek qimmatbaho taqinchoqlar uchun ijrochi majburiyatni olmaydi.

Iste'molchidan qabul qilib olingan va yo'qotilgan buyumlarni iste'molchi tiklab berishi, iloj bo'lmagan hollarda buyumning ikki baravar narxini to'lashga majbur.

Mehmonhonada yashash jarayonida istemolchi hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar joriy qonunchilik asosida undiriladi.

MDH ishtirokchi-mamlakatlari fuqarolari kelgani taqdirda, ijrochi ikki nusxada ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini to'ldiradi, ulardan biri bir sutka ichida Joylashuvga qarab Qoraqalpog'iston respublikasi IIV, Toshkent shahar IIB, viloyat IIB adres byurolariga topshiriladi.

Fuqarolarning ketish vaqtida ushbu korxonalarning ijrochisi adres ma'lumotlari byurosiga habar yuboradi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlar kartotekasidan qayd etish anketasi olinadi va arxivga topshiriladi, u yerda anketa bir yil saqlanadi.

“O'zbekiston Respublikasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga ko'ra “Ijrochi xizmatlarni ko'rsatish uchun iste'molchi bilan shartnoma tuzishi lozim. Xizmatlarni ko'rsatish shartnomasi, iste'molchi tarafidan pasport yoki harbiy guvohnoma taqdim etlgandagina tuzilishi mumkin.”

Agar mijoz joylashtirish shartlariga rozi bo'lsa Registrasiya kartochkasi

(Registration form)ni to'ldiradi. Ushbu kartochka ijrochi va iste'molchi o'rtasidagi shartnoma vazifasini bajaradi. Anketada mehmon o'zining doimiy yashash manzili, to'lovni amalga oshiruvchi tashkilot nomi va manzili, hisob-kitob shaklini ko'rsatadi(naqd pul, kredit kartochkasi yoki chek).

Anketa ikki nusxada to'ldiriladi. Birinchi nusxa IIBning adreslar idorasiga yuboriladi, ikkinchi nusxa esa mehmonxona kartotekasiga joylanadi.

Anketani ehtiyotkorlik bilan to'ldirish kerak. Chunki mijoz haqidagi ma'lumot, ushbu shaxsni bayramlarda dam olish yoki unga qiziqarli bo'lgan biron-bir yig'ilishga taklif etish uchun kerak bo'lishi mumkin. Noto'g'ri yozilgan manzil yuborilgan reklama materiallarining zoyega ketishiga yoki mehmon esdab chiqarib, qoldirib ketgan buyumning yetkazilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bundan tashqari to'g'ri yozilgan manzil, mehmon pulni to'lamasdan ketib qolgan taqdirda ham to'lovning undirilishini kafolatlaydi. Noto'g'ri ko'rsatilgan ketish vaqti shunga olib keladiki, mehmon vaqtlitiroq ketgani taqdirda, xona bir kun sotilmay qolishi mumkin. Mehmon joylashtirish muddatini uzaytirgan taqdirda esa, xona yana bir marta sotilishi mumkin. Natijada ikkila mijoz norozi bo'ladi. Noto'g'ri yozilgan kredit kartochkasining raqami to'lovni undirishga to'siqlik qiladi. Kartochakni to'ldirgach, mehmon uni imzolaydi va natijada mehmonxona bilan joylashtirish turi, muddati va xona narxini tasdiqlovchi shartnomani tuzadi.

Anketa to'ldirilgach, administrator anketa va pasportdagi ma'lumotlarni solishtiradi, berilgan xona raqami yoziladi, kelish va ketish sanasi, vaqti ko'rsatiladi.

REGISTRATION FORM	XONA RAQAMI	KISHILA R SONI	KELISH SANASI	KETISH SANASI
	XONA TURI	ROYHAT DAN O'TKAZI SH RAQAMI	XONA NARXI	ADMINIS -TRATOR
Familiya:	Ism:			

Company:		Manzil:			
Passport №:	Millati:	Shahar:	Davlat:		
Berilgan vaqti:	Berilgan joyi:	Tug'ilgan sanasi:	Soliq Inspeksiyasi va INN		
Kasbi:	Telefon:	e-mail:			
Mehm onlar uchun ma'lumot: •Hisob-kitob vaqti 12-00 •Honalarda qoldirilgan yoki xonadagi saqlash seyflaridagi qimmatbaxo buyumlar uchun mehmonxona javobgarlikni olmaydi. •Shaxsiy cheklar qabul qilinmaydi. ** yuqorida ko'rsatilib o'tilgan kompaniya yoki assotsiatsiya to'lovni amalga oshirishdan bosh tortsa, to'lovni o'z hisibimdan to'lashga qodirman. Mening imzoyim hisobni to'lash uchun kredit kartochkamning debetlanishini tasdiqlaydi. * Ko'rsatilgan pasport yoki manzil ma'lumotlariga o'zgartirish kiritilishi taqdarida Reseption habardor etilishi kerak		Birgalikda kelganlar:			
		Ismi-sharifi	Mehmo nga aloqasi	Yoshi	Xona №
		To'lov: Naqd ☐ Kredit karta ☐ Boshqalar ☐			
Imzo:					

So'ngra administrator "Joylashtirish uchun ruxsatnoma"ni to'ldiradi, ushbu hujjat ma'lum xonani egallash huquqini beradi. Ko'pgina mehmonxonalarda ushbu hujjat ishlatilmaydi.

“ _____ ”Oтели Joylashtirish uchun ruxsatnoma Mehmonning familiya, ism-sharifi _____ <i>Axmedova Aygul</i> _____ Mamlakat _____ <i>Qozog'iston</i> _____ To'lov shakli _____ <i>naqd</i> _____ Kelish sanasi _____ <i>1.01.05</i> _____ ketish sanasi va vaqti _____ <i>5.01.05 - 14-00</i> _____ Buyurtma raqami _____ <i>05/132</i> _____ Rezervatsiya to'lovi _____ <i>20%</i> _____ Joylashtirish indeksi _____ <i>30</i> _____ Xona raqami _____ <i>207</i> _____ Qo'shimcha ma'lumotlar _____ <i>Nonushta xonaga yetkazilsin</i> _____ Administrator _____

To'lovni amalga oshirgach, mijoz hisobning ikkinchi nusxasini oladi, ushbu hujjat asosida, u joylashtirish va qo'shimcha xizmatlar uchun hisoblashadi. Ro'yxatdan o'tkazish vaqtida mijozga joylashtirish uchun hisob(guest folio) bosib chiqariladi. U o'z ichiga kunlar soniga ko'paytirilgan xona narxi, rezervatsiya haqi, qo'shimcha xizmatlar(restoranda ovqatlanish, telefon qo'ng'iroqlari, room service biznes-sentr, kir yuvish xizmatlar), va mehmonxona ustlamalarini oladi.

Administrator vizit kartochkasini to'ldiradi. Ushbu hujjat mehmonxonaga kirish va kalitni olish huquqini beradi. Ushbu kartochka bir nusxada to'ldiriladi, quyidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi: mehmon ism-sharifi, xona raqami, joylashtirish muddati.

“Bo'stonsaroy” HOTEL	Xona raqami _____
Ism-sharif _____ Kelish sanasi _____ Ketish sanasi _____ Kompaniya _____	
O'zbekiston Samarqand shahar Atoiy k'chasi 14, Tel:(998 91) 120-80-77, 120-88-22,120-88-73	

Ko'pgina mehmonxonalar vizit kartochkasidan reklama vositasi sifatida foydalanishadi. Unda mehmonxona joylashuvi va u yerga eltuvchi transport haqida ma'lumot, mehmonxona xizmatlari va telefon raqami ko'rsatiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish yakunlangach, mijozga xona kaliti va vizit kartochkasi topshiriladi. Bell boy mijoz bagajini olib xonasigacha kuzatib qo'yadi.

Royxatdan o'tlazish vaqtida tashrif buyuruvchilarning bagaji lobbida turadi. Katta mehmonxonalarda esa mehmon bagajlari saqlanadigan alohida xona (luggage room) bo'ladi. Bagajlarni adashtirib qo'ymaslik uchun mehmon ismi-sharifi, bagaj turi, sana yozilgan talonlar ishlatiladi. Bell boy yoki Doorman mehmon bagajini olishi bilan kerakli ma'lumotlarni yozib talonni biriktirib qo'yadi. Agarda bagajda talon bo'lmasa mehmon o'ziga tegishli bo'lgan bagajni ko'rsatadi, Bell boy bagajni olib mehmon xonasigacha kuzatib qo'yadi. Xonadagi jihozlar va xavfsizlik choralari bilan tanishtirib chiqadi.

Turistik guruhlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi. Rezervatsiya buyurtmasi turistik guruh kelishiga avvaldan tayyorlanish imkonini beradi. Ushbu hujjatdan foydalanib administrator va Bell boylar faoliyatini rejalashtirib qo'yish mumkin. Turistik guruh kelishidan avval administrator Group registration form (Guruhni ro'yhatdan o'tkazish hujjati) ni tayyorlab qo'yadi.

Turistik guruh mehmonxonaga kelganida, guruh rahbari administratorga joylastirish uchun ruhsatnoma (Guruhning mehmonxonada joylashtirish huquqini beruvchi va to'lov amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat) yoki Voucher (turistik yo'llanma) ni va unga biriktirilgan guruh ro'yhatini taqdim etadi.

“Marco Polo” turistik firmasi
Toshkent sh. Bobur ko’ch. 12uy
Hisob raqami:280000000434502

“Bo’stonsaroy” mehmonxonasiga

Joylashtirish uchun ruhsatnoma

Moskva shaxridan keluvchi 05/39raqamli, 12 kishidan iborat turistik guruh uchun 01.09.13 dan 07.09.13 yil 12-00 gacha firmamiz uchun ajratilgan xonalarni berishingizni so’raymiz.

Joylashtirish uchun to’loovni pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshirganmiz.

Menejer

Komilova M.P.

“Bo’stonsaroy” Hotel
GURUHNI RO’YHATDAN O’TKAZISH HUJJATI
(GROUP REGISTRATION FORM)

GURUH NOMI(GROUP NAME):
KELISH SANASI(ARRIVAL DATE):
PANSION:
AJRATILGAN XONALAR SONI(NUMBER OF PAX):
BIR KISHILIK(SINGLE):
IKKI KISHILIK(DOUBLE):
IKKI YOTOQLI(TWIN):
UCH KISHILIK (TRIPLE):

XONA RAQAMI	ISM, FAMILIYA	IMZO

Xabardor etilishi kerak:

Concierge
Telefon operatori
Cooffee shop
Oshxona
Buxgalteriya

Ertalabki uyg’otish: _____
Bagajlarni tushirish: _____
Nonushta _____
Ketish sanasi: _____

Turistik tashkilot _____ tel. _____ faks _____ boshqaruvchi _____ Lisenziya № _____ "O'zbekturizm" MK tomonidan " _____ " _____ 200__y.da berilgan				
Sotish bo'yich agent _____ Shartnoma № _____				
HABARNOMA № _____				
ALMASHINUV VAUCHERI EXCHANGE VOUCHER № 004049 *				
Ko'rsatlashi lozim bo'lgan tashkilot _____ Turist familiyasi _____ mamalakat _____ Keluvchilar soni _____ kelish _____ ketish sanasi _____ tunlar soni _____				
Qandat xizmatlar ko'rsatilishi lozim yoki qanday hujjatlar berilishi kerak	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="padding: 5px;">Horijiy valyutadagi summa</td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px;">So'mdagi miqdor</td> </tr> <tr> <td style="height: 40px;"></td> </tr> </table>	Horijiy valyutadagi summa	So'mdagi miqdor	
Horijiy valyutadagi summa				
So'mdagi miqdor				

Administrator mehmonlarni birma-bir chaqirib, berilgan xona raqamini aytadi. Odatda turistik guruhlar uchun ikki kishilik xonalar ajratilgan bo'ladi, guruh rahbariga esa bir kishilik xona beriladi. Barcha turistlarga anketalar to'ldiriladi. Guruhni ro'yhatdan o'tkazish hujjatiga mehmonlar imzo chekadi.

Har bir mehmon uchun administrator vizit kartochkasini to'ldiradi va kalitni taqdim etadi. Guruh ishtirikchilariga hisob varaqasi yozilmaydi, chunki to'lov fima btomonidan pul o'tkazish orqali amalga oshirilgan.

Dunyoda bir necha ko'rinishdagi mehmonxona tariflar tizimi mavjud:

1. Yevropacha plan (European plan) Ushbu tarifga faqatgina joylashtirish xizmati kiritilgan. Ko'pincha motellarda qo'llaniladi. Chunki motel mehmonlari ko'pincha faqatgina joylashtirish xizmatini talab etishadi.

2. Continental plan (Bed and breakfast) – ushbu tarifga joylashtirish va nonushta kiritilgan. Xona narxiga kiritilgan nonushta uch hil bo'lishi mumkin:

·Kontinental nonushta (Sharbat, qahva yoki choy, bulochka, djem, saryog').

·Inglizcha nonushta (Yuqoridagilarga vetchina bilan qovurilgan tuxum

qo'shiladi).

·Shved stoli (nonushta zalida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish usulida pishloq, kolbasa mahsulotlari, non-bulochka mahsulotlari, mevalar, djemlar, asal, kofe, choy, turli usulda pishirilgan tuhumlar). Respublikamizdagi aksariyat mehmonxonalar ushbu tarif asosida xizmat ko'rsatadi.

3. Yarim pansion (Half-board). Tarifga nonushta va tushlik yoki kechg'i ovqat kiritiladi. Ushbu tarif kurort mehmonxonalarida va asosan turistik guruhlar uchun qo'llaniladi. Chunki turistik guruh a'zolari nonushtani tamomlagach, dastur bo'yicha belgilangan ekskursiyaga chiqib ketadilar va tushlikni shaxardagi biron-bir mehmonxonada, kechg'i ovqatni mehmonxonada tanovvul qilishlari yoki buning aksi bo'lishi mumkin.

4. To'la pansion (Full board yoki American plan). Tarifga joylashtirish va uch mahal ovqatlanish xizmati kiritilgan. Umumiy ovqatlanish tarmog'i yaxshi rivojlanmagan hududlarda va kurort mehmonxonalarida qo'llaniladi.

5. Barchasi kiritilgan (All included). Tarifga uch-to'rt mahal ovqatlanish, basseyn, trenajor zali, tungi klub, kir yuvish xonasi, biznes sentr, ekskursiya xizmatlaridan bepul foydalanish kiritilgan bo'ladi. Ushbu tarif qimmat naxlarda badavlat insonlarga taklif etiladi.

Xorijiy turistlarni ro'yxatdan o'tkazish xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasiga kirish vizaning mavjudligini talab etadi.

Viza – bu xorijiy davlatning diplomatik vakolatxonasi tomonidan pasportga qo'yiladigan yoki alohida hujjat ko'nishidagi belgilangan mamlakat hududiga kirish va joylashish huquqini beruvchi ruxsatnomadir. Mamlakatga tashrif buyurish uchun vizalar taklifnomalar asosida beriladi.

Taklifnomalarning quyidagi turlari mavjud:

- a. Xizmat yoki ish yuzasidan.(xorijiy tashkilotdan – O'zbekiston tashkilotiga)
- b. Xususiy (xorijiy mehmondan – O'zbekiston fuqarisiga)
- c. Mehmon (xorijga uzoq muddatli xizmat safaridagi fuqarodan – o'z hamyurtiga).
- d. Turistik (dam olish, davolanish, qisqa muddatli o'qish va boshqa

maqsadlardagi safarlarga).

Vizaning quyidagi turlari mavjuddir:

1. *Turistik viza* – Belgilangan mamlakat hududiga turizm va dam olish maqsadida vaqtinchalik kirish huquqini beruvchi qaydnoma hisoblanadi. Turistik viza - taklifnoma, vaucher, turistik yo'llanmada ko'rsatilgan muddatga sport va boshqa tadbirlarda qatnashish uchun beriladi. Turistik safarlar, qoida bo'yicha, qisqa muddatga mo'ljallangan bo'ladi va shuning uchun bu yerda ko'p marotabali viza berilmaydi.

2. *Xususiy viza* – xususiy shaxs tomonidan boshqa davlat jismoniy shaxsiga taklifnoma yuborish asosida beriladi. Taklifnoma mahalliy hokimiyat organlarida rasmiylashtiriladi.

3. *Tranzit viza* – oluvchiga boradigan mamlakatiga uchinchi davlat orqali borish huquqini beradi. Tranzit viza uchinchi mamlakat elchixonasi tomonidan asosiy viza olinganidan keyin belgilangan soatlar miqdoriga beriladi. Misol uchun , Fuqaro poyezdda uchinchi davlat orqali Avstriyaga yo'l olgan. Avstriya vizasi olinganidan keyin tranzit viza olish uchun uchinchi mamlakat elchixonasiga hujjatlar topshiriladi.

“O'zbekiston respublikasida mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish qoidolari”da aytilishicha tranzit vizali mehmonlarni uzog'i bilan 72 soatgacha joylashtirish mumkin.

4. *Ish vizasi* – Xorijga yo'llanish huquqini beradi. Bunday vizani oliush uchun taklif qiladigan tomon bo'lajak ishchi bilan shartnoma tuzadi, mahalliy immigratsiya xizmatida hamma jihatlari kelishib oladi, hukumat rozilini olib, barcha hujjatlar paketini bo'lajak xodimga yuboradi. Fuqaro bu hujjatlar bilan ish vizasini olish uchun elchixonaga murojaat qiladi.

5. *Diplomatik viza* – Horijiy davlatda faoliyat yurituvchi elchixona va konsullik xodimlariga beriladi.

Shengen vizasi. 1996 yil 26 martda Yevropada Shengen bitimi kuchga kirdi. Shengen bitimiga: Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gretsiya, Shvetsiya, Avstriya, Daniya, Finlandiya, Norvegiya va

Islandiya davlatlari kiradi.

Agar turist bir necha Yevropa davlatlariga bormoqchi bo'lsa, Shengen bitimiga muvofiq, bitimga kiruvchi mamlakatlarning biriga viza oladi va qolgan davlatlar hududlariga ham vizasiz harakat qilishi mumkin.

Vizadagi "kirishlar soni"ga e'tibor berish kerak. Agar vizada "ko'p martalik" yozuvi bo'lsa, siz viza muddati mobaynida bir necha bor tashrif buyurishingiz mumkin. Agar "I" raqami turgan bo'lsa, sizga viza bergan mamlakatga faqat bir marta borishingiz mumkin.

O'zbekiston respublikasiga tashrif buyurgan turist uch sutka ichida pasportini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etishi lozim.

Mehmonxona, horijiy turistlarni joylashtirish huquqini olish uchun O'zbekiston Respublikasi IIV, Kirish-chiqish va fuqarolik ishlari boshqarmasidan beriladigan ruxsatnomaga ega bo'lishi kerak.

Mehmonxonalarda ro'yxatdan o'tkazilgan horijiy mehmonlar "Awir register" deb nomlanadigan jurnalga kiritilishi kerak. Har kuni mehmonxona, pasport-awir bo'limiga ushbu jurnal ma'lumotlari asosida hisobot beradi.

1.3. Hayot faoliyatida mehnat muhofazasining qonuniy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy, qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning ko'rsatmalari va buyruqlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (1992 il 8 dekabr):

Oliy Majlisining vakolatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning muddatini uzaytirish va to'xtatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash kiradi (78-modda).

Mahalliy hokimiyat organlarning Konstitutsiyamiz tomonidan

belgilangan vazifalari qatoriga jumladan quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalar hosil qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish (100-modda).

Konstitutsiyada eng avvalo inson huquqlarini himoya qilish ko'rsatilgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalanih asosi berilgan.

Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyasiga qaratilgan. 36-moddada «Har bir shaxs qonunda ko'rsatilgan tartibda mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir» deyilgan va uning davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog'ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deyilgan.

Konstitutsiyaning 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deb, fuqarolarning dam olish huquqini amalga oshirilishini ta'minlaydi. 38-moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega, xuddi shuningdek pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb fuqarolarimizning hayot xavfsizligi ta'minlangan.

39-moddada «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega» deb tibbiyot xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiyot xizmati korxonalari tashkil etilishi va jumladan malakali tibbiyot xodimlari o'z shaxsiy davolash muassasalariga ega bo'lishi, davolash

sohasida raqobat vujudga kelishi bilan Respublikamizda yashovchilar malakali tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyati ta'minlandi.

Yurtimizda fuqaro mehnati muhofazasini O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» qonuni (1993 y. 6 may), Mehnat Kodeksi (1995 yil 21 dekabr, №161-1), «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida Nizom» (Vazirlar Mahkamasi 1997 yil 6 iyun, 286-qaror) va turli davlat standartlari va ko'rsatmalari asosida huquqiy asosi yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun jami 5 bo'lim, 29 moddadan iborat bo'lib, ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'ligi va mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Qonunning birinchi umumiy qoidalar bo'limida (jami 7 modda): Mehnatni muhofaza qilish – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat deyilgan (2-modda).

Mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlash (2 bo'lim, 8-15 moddalar)da me'yoriy ta'minlash, muhofaza talablariga rioya qilish, mutaxassislarni tayyorlash, moliyaviy ta'minlash, iqtisodiy manfaatdorlik, xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, muhofaza xizmatlari va ijtimoiy sug'urta haqida aytilgan.

Agar qonunning 3 bo'limida ishlovchilarning mehnatini muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar (16-21 moddalar) keltirilgan bo'lsa, 4 bo'limda davlat va jamoatchilik nazorati (22-24 moddalar) va so'nggi 5 bo'limda qonun va me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda Mehnat Kodeksida to'liq XIII bob «Mehnatni muhofaza qilish» deb atalib,

undagi talablar 211-223 moddalarida ko'rsatilgan.

Ushbu ikki mehnatni muhofaza qilish asosiy hujjatlar asosida, ishlab chiqilgan Nizomda (4 bo'lim, ilovalardan tashkil topgan) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida aniq tadbir va choralar, qoida va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqligi ta'minlangan. Bu esa mehnat qilish haqidagi qonuniyatda ta'kidlangan. Shu bilan birga ayollar a'zolarining ba'zi xususiyatlarini va ayollarning oiladagi mavqeini hisobga olib, qonuniyatda ular uchun ma'lum yengilliklar va maxsus qoidalar belgilangan. Ayollar sog'ligiga zarar keltirishini hisobga olib, ba'zi bir ishlarda ayollar mehnatidan foydalanish ta'qiqlanadi. Masalan, ayollarning zaharli moddalar ajralishi bilan bog'langan kimyo sanoatining ba'zi tarmoqlarida, yer osti ishlarida va boshqa bir qancha ishlarda ishlashlariga yo'l qo'yilmaydi, ular qo'lda 20 kg gacha bo'lgan yukni va zambilg'altak bilan 50 kg dan oshmagan yukni olib yurishlari mumkin.

Farzand ko'rish kerak bo'lgan va emizuvchi ayollarga maxsus yengilliklar tug'ildiriladi. Bunday ayollarni va 8 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarni tungi (soat 22 dan soat 6 gacha), ishdan tashqari, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish va komandirovkaga yuborish taqiqlanadi. Ma'muriyat ba'zi hollarda bunday ayollarni vrach xulosasiga asosan, o'rtacha ish haqini saqlagan holda yengil ishlarga o'tkazishi lozim. Ayollarga tug'ish oldidan va tuqqandan keyin 56 kalendar kundan haq to'lanadigan dam olish kunlari beriladi. Bundan tashqari, farzand kutayotgan va emizuvchi ayollar uchun yana bir qancha yengilliklar beriladi.

Sanoat korxonalarida ishlovchi ayollar uchun bola emizish xonalari, dush xonalari va shaxsiy gigiyena xonalari tashkil qilinadi.

O'smirlar uchun bir kalendar oy miqdorida yilning eng yaxshi davrlarida yoki o'zi hohlagan vaqtda dam olish kunlari berilishi kerak. O'smirlar mehnatidan tunggi ishlarda, ishdan keyin qolib ishlanadigan

ishlarda, dam olish kunlarida foydalanish butunlay taqiqlanadi. O'smirlar sog'liklari uchun zararli moddalar ajralib chiqish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda ishlatish mumkin emas. Mashinasozlik sanoatida o'smirlar mehtidan galvaniq sexlarda, har xil shamollatish tizimlarini remont qilish va tozalashda, shuningdek, simob va simob birikmalari bilan ishlanadigan ba'zi bir ishlarda foydalanish mumkin emas.

18 yoshga to'lmagan o'smir bolalarga 16 kg gacha, qizlarga esa 10 kg gacha bo'lgan og'irlikdagi yuklarni ko'tarish ruxsat etiladi. O'smirlar ishga qabul qilinayotgan vaqtda tibbiyot ko'rigidan o'tkaziladi, shuningdek 18 yoshga to'lguncha yiliga belgilangan rejaga muvofiq tibbiyot ko'rigidan o'tkazib turiladi. Agar tibbiyot ko'rigi o'smir bajarayotgan ish, uning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sezilsa, o'smir darhol xavfsiz va yengilroq ishga o'tkaziladi.

Ba'zi bir sohalarda zararli ish sharoiti bo'lgan joylar uchrab turadi. Mehnat qonuniyatiga asosan bunday joylarda ishlovchilar uchun ustama haq to'lanadi yoki ish soati qisqartiriladi. Ish soatining qisqartirilishi natijasida ishchi zararli moddalar bo'lgan zonada kamroq bo'ladi va bu bilan u kamroq zaharlanadi.

Zararli moddalar ajralishi mumkin joylarda ishlovchi ish kunlarida 0,5 litr miqdorda sut yoki shunga yarasha boshqa ehtiyot chora sifatida mahsulotlarni oladilar. Sut olish zarur bo'lgan kasblarni FZKU bilan kelishilgan holda korxonaning rahbar xodimlari belgilaydi. Bunga O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan ilmiy xulosalar asos qilib olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi mazmunida ishlab chiqarish korxonalari ma'muriyati mehnatkashlarga ishlab chiqarish bilan bog'langan har qanday shikastlanish yoki zararlanishni, shuningdek moddiy yo'qotishni qoplash majburiyatini oladi.

Xavfsiz ishlash sharoitini yaratish borasida yo'l qo'yilgan har qanday kamchilik yoki xavfsiz ishlash sharoitini tashkil qilmaslik natijasida

ishchining baxtsiz hodisaga uchrashi sanoat korxonasining yoki rahbar xodimlarning aybi hisoblanadi. Moddiy yo'qotishni qoplash miqdori va tartibi maxsus qoidalar asosida olib boriladi.

Yuqorida biz mehnat qonuni, kodeksi va ayrim me'yoriy hujjatlardan qonun, qoida va ko'rsatmalardan ayrimlarini ko'rib chiqdik. Shulardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda fuqarolarning hayot faoliyati yetarli qonun va qoidalar bilan kafolatlangan.

Mehnat xavfsizligi tadbirlarini yaratish va ularning ijtimoiy iqtisodiy samaradorligi. Hayot faoliyati xavfsizligida mehnat muhofazasi, qonunda ko'rsatilganidek:

- mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'ligi va xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan qonunlar majmuasi, sotsial-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga qamrab olar ekan, demak barcha jabhalarda fuqarolarning mehnat qilish sharoiti talab darajasida yaratilishi lozim.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining metodologik asosining yana bir tomoni, bu mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zaharli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo'ladigan xavfli vaziyatlarni muntazam ravishda ilmiy tahlil qilib borishdir. Chunki, faqat tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarning barchasi o'zaro bog'langan, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko'rilib borilishi lozim.

Ishlab chiqarishda, tashkilotlarda har bir rahbar va muxandisning O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuniga amal qilish, ishlab chiqarish xavfsizligi masalalarini ish faoliyatida to'g'ri hal etishi, uning shu sohadagi bilim va malakasiga bog'liq. Hayot faoliyati xavfsizligi bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo'lgan mehnatni texnika xavfsizligi hamda yong'inning oldini olish masalalari hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada, yalpi safarbarlik bilan tashkilotlarda mehnat xavfsizligiga doir barcha qaror va hujjatlarni tahlil qilish, kelgusida mehnat xavfsizligi darajasini ko'tarish, ish yuritishda texnika xavfsizligi mashg'ulotlarini o'tkazish, mehnat muhofazasi ishlarini tashkil etish, o'quv yurtlari o'qituvchilari, talabalari, xizmatchi va ishchilari o'rtasida shikastlanishning oldini olish hamda davlat standarti masalalari talablariga rioya etish maqsadida «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida» Qonunning qabul qilinganligi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sohadagi barcha chora-tadbirlar aynan qonun asosida talab etiladi.

Agar biz «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni mazmun jihatidan ko'rib chiqsak, unda uning o'z tarkibida jamoa shartnomasi, mehnat intizomi, ayollar va bolalar mehnati, ijtimoiy himoya hamda boshqa masalalarni mujassamlashtirilganligining guvohi bo'lamiz.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun asosida ishlab chiqarishdagi inson sog'ligi uchun zararli bo'lgan omillarni bartaraf qilish, baxtsiz hodisalarning oldini olish va ish joylarining sanitariya – gigiyenik jihatdan qoniqarli holatda bo'lishi uchun barcha zarur chora – tadbirlarni ko'rish mas'uliyati ma'muriyat zimmasiga yuklatilganligi ko'rsatib o'tilgan. Kasbiy zararliliklar mavjud bo'lgan hududlarda mehnat qiladigan ishchilar uchun qisqartirilgan ish kuni, qo'shimcha dam olish kunlari joriy etilishi, zararli ish joylarida ishlaganlarga, ya'ni juda issiq haroratli, sovuq, zax va sog'liq uchun zararli sharoitda mehnat qilayotganlar uchun maxsus ustama haq hamda himoya kiyimlari berilishi ko'zda tutiladi. Kasbiy kasalliklarning oldini olish, ishchilarning sog'ligini mustahkamlash maqsadida ularni o'rnatilgan tartibi joriy etilgan.

Korxonalarda ishchi va xizmatchilar ishining xavfsizlik darajasi, shuningdek, xizmat malakasi ishchining staji, lavozimidan qat'iy nazar ishga qabul qilinganda belgilangan muddatlarda texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar bilan tanishtirilishi shart. Yo'riqlantiruv ikki: kirish va ish joyidagi turlardan tashkil topadi.

Kirish yo'riqlantiruv texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va tibbiyot xizmat xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Unda yangi ishga kirayotgan ishchini mazkur korxonaning ichki tartib-qoidolari, shu jarayonning o'ziga xos zararli xususiyatlari, texnika xavfsizligi me'yorlarini bajarish majburiyati, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va baxtsiz hodisa ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish usullari bilan tanishtiriladi.

Ish joyidagi yo'riqlantiruv sex boshlig'i yoki navbatchi boshliq ishtirokida usta yoki sardor tomonidan o'tkaziladi. Bunda ishchi bajaradigan vazifasi, ish joyi texnika xavfsizligi yo'rig'i bilan tanishadi. Yo'riqlantiruvdan o'tgan ishchi 10 kun ichida tajribali ishchi nazoratida ish o'rganadi. Ishlash bilimi komissiya tomonidan qoniqarli deb baholangan ishchi mustaqil ishga qo'yiladi. O'tkazilgan barcha yo'riqlantiruv maxsus jurnal va ishchining shaxsiy varaqasiga yozib qo'yiladi.

Korxonadagi barcha ishchilar uchun olti oyda kamida bir marotaba ish joyidagi yo'riqlantiruv qaytarib turiladi. Texnologik jarayon o'zgarganda, korxonaga yangi mashina va agregatlar o'rnatilganda, sexda zaharlanish va baxtsiz hodisalar tufayli shikastlanuvchilar ko'paysa, unda rejadan tashqari yo'riqlantiruv o'tkaziladi.

O'ta xavfli ishlarda ishlaydigan ishchilar xavfsiz ishlash usullari bo'yicha maxsus o'qitiladi. Bularga bosim ostida ishlaydigan idish va apparatlar, gazda ishlaydigan mashina va apparatlar, kompressorlar, elektr uskunalarda ishlaydigan liftlar, elektr transporti haydovchilari, gaz hamda elektr payvandchilar va shunga o'xshash kasblarda ishlaydigan ishchilar kiradi. Bunday ishlarga ishchilarni qo'yishdan oldin ularning bilimi sinab ko'riladi va ularga «naryad ruxsat» beriladi. Unda ishni boshlash va tugatish vaqti, ishni boshlashdan oldin tayyorgarlik ko'rish tadbirlari yozib qo'yilgan bo'ladi.

Naryad ruxsatlar bosh muxandis, bosh mexanik, bosh energetiklar tomonidan beriladi. Ular xavfsizlik texnikasi bo'yicha attestatsiyadan o'tgan bo'lib, xavfli ishlar bo'yicha javobgar hisoblanadilar va korxona direktori

tomonidan tayinlanadi.

Sanoat korxonalariga mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qitish va targ'ibot qilish maqsadida texnika xavfsizligi xonalari tashkil etiladi. Unda texnika xavfsizligiga oid qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar, zamonaviy shaxsiy himoyalash vositalari bo'lishi zarur. Bunday xonalar umumiy yo'riqlantiruv o'tkazishda foydalaniladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida Mehnat Kodeksi va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi me'yorlarni buzishda ayblangan rahbar shaxslar ma'muriy moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy javobgarlik – xodimga xayfsan berish, ishdan chetlashtirish, o'rtacha oylik ish haqining yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish va mehnat shartnomasini bekor qilishdan iborat. Moddiy javobgarlik esa «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni buzgan shaxslarni nazorat tashkilotlari tomonidan belgilangan miqdorda jarima to'lashga yoki keltirilgan moddiy zararni qoplashga majbur qilishdan iborat. «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunni buzish baxtsizlik yoki o'limga sabab bo'lsa, aybdor shaxslar belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ishlab chiqarishda sog'lom va xavfsiz mehnat qilish sharoitini yaratishda, mehnat qonuni, kodeksi, Nizomidan boshqa Mehnat xavfsizligi standartlar tizimi katta rol o'ynaydi. Ulardagi qo'yilgan vazifani bajarishda va normadagi sharoitni ta'minlashda mehnat muhofazasini boshqarish tizimi – sistemasi (MMBT) inobatga olinadi. MMBT faoliyatiga mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish, baholash, ishlarni barqarorlashtirishi kiradi. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tashviqot olib borish, xavfsizlik talabiga binoan o'qitish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, uskunarlar, jarayonlar, bino va qurilmalar xavfsizligini ta'minlash, sanitariya –gigiyenik mehnat sharoitini yaxshilash, ishchilarni shaxsiy muhofaza vositalari va mehnatni normadagi rejimi, dam olish bilan ta'minlash, sanitariya-maishiy xizmat, mutaxassislarni kasbi bo'yicha tanlash kabi vazifalar tizimning tarkibi hisoblanadi.

2. Bob. Milliy kiyinish madaniyati va dizayni tarixi

2.1. O'zbek kiyinish madaniyati va dizayni turlari

Kiyim-kechaklar o'zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqning milliy o'ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi.

Kiyimlarda biron-bir el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanaladi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida o'zgarishlar bo'lib turishi bilan bir vaqtda kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushining ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko'p asrlik tarixga ega. Har bir elat va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatli bosh-oyoq kiyimlari bo'lsa-da, mintaqada yashovchi etnoslar umumiy xarakteridagi sarpo mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyati uzoq davr o'zaro yaqin bo'lganidan dalolat beradi. Arxeologik qazilmalarda topilgan qadimiy katta devoriy rasmlar, tasvirlar o'rta asrdagi boy ma'lumotlarni beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining turi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini namoyon qiladi. Xalqning kiyim-kechakdagi o'zgarishlar, asosan, asrimiz boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformatsiya, asosan, shaharlarda ochiq-oydin bilinadi.

O'zbek xalqi o'zining milliy marosimlarida alohida kiyinadi, nikoh to'yida kelin-kuyovning, xatna to'yda to'y bolaning liboslari, dafn marosimida marhumni yodlash rasm-rusumida kiyiladigan liboslar.

Odatda o'zbeklarda qizning sepi to'ydan ancha ilgari taxt qilib qo'yiladi. «Qizingni beshikka sol, sepini – sandiqqa», - deydi xalqimiz.

Xilma-xil buyumlar, uy-ro'zg'or jihozlari bilan bir qatorda turfa gazlama va kiyim-



kechaklar kelin sepinig eng muhim zaruriy qismini tashkil etadi. To'y kiyimlari albatta oq rangda bo'lishi kerak, chunki bu rang baxt-saodat timsoli hisoblangan. Shu sababli ip gazlamadan maxsus oppoq libos tikilgan, uning bichimi uzun olinib, etaklari tupiqqacha tushib turgan, yoqalari zamonaviy uslubda, yenglari esa keng va barmoqlarini yopib turadigan darajada uzun bo'lgan. Bu kabi oppoq kelin libosi hozirgacha rasm bo'lib kelayabti. Kelinning ro'moli ham shunday tusda, ba'zan kashtalar bilan bezatilgan, ip gazlamadan tikilgan, yap-yangi poyafzallar esa an'anaviy mahsi va tuflidan iborat bo'lgan.

Agar oilada biron-bir yaqin qarindosh vafot etsa, ayollar uch kun ichida o'zlari ko'k yoki qora tusdagi matolardan ko'ylak tikib olishgan. Azaning to'rtinchi kuni manashu motam kiyimini kiyish marosimi o'tkazilib, suyuq taom tarqatilgan. Mazkur kun «ko'k kiydi» deb nomlangan. Irimiga ko'ra, motam liboslarining yeng va etak uchlari choklanmagan bo'ladi. Oradan yil o'tib, ko'k ko'ylaklar yechilib, oq ko'ylaklar kiyish marosimi – «oq kiydi» uyushtirilgan.

Keyingi yuz yillik mobaynida barcha moddiy madaniyat sohalarida bo'lgani kabi, o'zbek xalqining kiyim-kechaklarida ham murakkab o'zgarishlar sodir bo'ldi. An'anaviy xalq kiyim-kechaklarida yangi belgilar avvalgilari bilan qorishib ketdi. Zamonaviy shaharlarga xos modalar qayta tiklangan shakllar bilan birga keng tarqalaverdi. Turli avlodlarga mansub kishilar kiyimi turli darajada o'zgarishlarga duchor bo'ldi.

Mazkur o'zgarishlarning sur'atlari ham goh tez, goho sekinroq kechdi. To'qizyuzi yigirmanchi yillarda faqat erkaklar kiyimi jiddiy ravishda yangilangan bo'lsa, keyinchalik ayollar kiyimida ham asta-sekin o'zgarishlar ro'y berdi. Mintaqalarda yashovchi kishilar kiyim-kechaklari ham ular ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida bog'liq tarzda qisman yangilanib bordi.

Hozirgi o'zbek sarpolari zamonaviy turda bo'lib, ayniqsa, yevropacha kiyim-kechaklarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Milliy kiyimlar ko'proq qishloqda, alohida ayollar sarposida ancha mustahkam saqlangan. Shahar aholisining ko'pchiligi yevropacha kiyinadi.



1-rasm. An'anaviy kiyimdagi ayollar va amaldor libosi.

An'anaviy o'zbek kiyim-kechagi, asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa kalish-mahsi va etik kiyishdan iborat bo'lgan. Erkak-ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz (andozasiz), yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab yelka tomoniga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rtburchak xishtak (qo'ltig'iga solingan)ni tikib kiyilavergan

Erkaklarning an'anaviy yaktak ko'ylagi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to'pig'igacha uzunlikda tikilgan. Farg'ona vodiysida yaktak xildagi erkaklar ko'ylagining qiyiq joyi vertikaliga (yirmochi) belgacha yetsa, yana bir turining yirmochisi gorizontol holda bir egnidan ikkinchisiga qiyib cho'zilgan. Ikkalasiga ham uzunasiga yoqa o'rnatilgan, ayrim joylarida yoqasi kashtalangan. Gorizontol yirmochi yoqali ko'ylak Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida, Toshkent, Buxoro va Xorazmda keng tarqalgan. Ayollar ko'ylagining yoqasi ham kashtalangan yoki bezatilgan keng tasma tikilgan.

Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yiga gulli jiyak (tasma) tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryoda jiyak ip bilan but shaklida to'qilgan. Buxoroda qimmatbaho kiyimlarga tilla ipda to'qilgan

jiyak tikilgan. Ko'pchilik joylarda yoki katta ayollar oddiy jun chilvir yoki qoramtir yo'l-yo'l mato parchasini jiyak qilib ishlatgan. O'tkan asr boshlarida bunday ayol kiyimlari ham saqlangan. Turkiston o'lkasida dastlab shaharlarda, keyinroq qishloqlarda tik yoqali yirmochi ko'ylaklar moda (rasm) bo'la boshlagan. Bunday ko'ylaklarga «no'g'ay yoqa» deb nom berilgan. Eski, oddiy bichimdagi ko'ylaklarni, asosan, 50-60 yashar ayollar kiygan.

Hozirgi ayol sarpolari nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'pchiligi yevropacha, ammo milliy ruhdagi eng keng tarqalgan ko'krak burma bichimdagi ko'ylaklardir. Atlasdan tikilgan ko'ylaklar juda keng tarqalgan va bunday sarponi qizlar, shuningdek, o'rta yoshdagi va keksa yoshdagi ayollar ham kiygan.


Qadimiy ko'ylak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan. Masalan, Buxoro va Xorazm vohasida ular *guppi*, *jubba*, *guppicha* degan, Farg'ona vodiysida *guppi* ko'ylak yoki *guppicha* degan nomalar bilan ma'lum. Qadimiy ko'ylaklarga oq matodan gorizontaal ochilgan yoqali mullacha ko'ylak, musulmon ko'ylak ham kiradi. Juda keng tarqalgan (Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida) va qisman saqlangan (Xorazmda) *mursak*, *munisak* yoki *kaltacha* XIX asrda har kungi ayol kiyimi sifatida diqqatga sazovor. Bunday kiyim chopon shaklida uzun, yoqasiz, yengil astar bilan tikilgan. Ishtonni ham ko'ylakday bir parcha gazlamani ikkiga bo'lib, oldi va orqasidan tikib og'ini yopishtirganlar. Erkaklarning ishtoni ayollarnikidan uncha farq qilmagan. Faqat ayollar ishtoni bichimi bir bo'lsa-da, materialli har xil, ya'ni yo'l-yo'l gazlama yoki ipak matodan bo'lib, erkaklarnikiga nisbatan uzunroq, pastli jiyak (tasma) bilan bezatilgan.



2 rasm. Mursak va kamzul.

Ayollar ishtoni (lozim) ilgari ikki qismdan: yuqori qism oddiy matodan, pastki qismi qimmatbaho materialdan (ba'zan ko'ylakka moslashtirib) tikilgan, pochasiga jiyak tikilgan. Umuman olganda, erkaklarning ko'ylak-ishtoni, odatda, bir rangda (asosan, oq), ayollarniki rang-barang materialdan tikilgan. XIX asrning oxirlarigacha kiyim-kechaklar mahalliy kosiblar to'qigan matodan (bo'z, kalonmi, alacha) tikilgan. Keyinchalik kiyim-kechaklar rus fabrikantlari mahsulatlaridan tikila boshlagan (ayollarga gulli chitdan, erkaklarga oddiy oq chitdan).

O'zbek xalqining milliy ramzi sifatida saqlanib kelayotgan ustki kiyim – chopon (to'n) shu kungacha katta xurmatda. Chopon ochiq yoqali, yaktak shaklidagi astarli va paxtali qilib tikilgan. Chopon uzun yengli, yuqori qismi keng, pastki tomoni torayib ketgan, ayrimlarining etgi, o'ng va so'l tomonidan qiyiq joyi bo'lgan, yerda o'tirishi qulay bo'lishi uchun.



3 rasm. Chopon.



4 rasm. Ro'mol va belbog'.

Odatda, choponning belbog'i bo'ladi, unga erkaklar pichoq (qini) bilan osib


yurganlar. Yozgi choponlar qavilmagan (avra-astar) chopon yoki, umuman, astarsiz (avra) chopon ham bo'lgan. Namanganda dala ishlarida oq matodan yupqa qovulgan kalta chopon kiyilgan, u kishilarni issiqdan saqlagan. Surxondaryo va Zarafshon bo'ylarida o'rnashgan chorvador o'zbeklarda ham tizzagacha keladigan, astarsiz kalta (avra) chopon ko'p uchraydi.

Asrimiz boshlarida qora satindan tikilgan chopon keng tarqalgan. Yoshlar orasida bayram libosi sifatida ochiq rangli katta yo'l-yo'l beqasam to'n moda bo'lgan. Qishloq joylarda bunday chopon kuyov sarposiga kirgan. Bir oz tor va kalta, kambar yo'lli naqsh berilgan, yaltiroq alachadan tikilgan Xorazm choponi qadimdan keng tarqalgan. Choponni yaktak ustidan kiyib belbog' bog'lash, asosan, Farg'ona vodiysida odat bo'lgan, boshqa joylarda belbog'siz yaktakchasigina kiyilgan.

Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi – *mursak* ilgari juda ham ma'lum bo'lgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentda uzun, ensiz, bilakkacha bo'lgan yengi bilan farqlangan, xolos. Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan. XX asrning boshlarigacha u oddiy ko'chalik libosi sifatida kiyilgan bo'lsa, keyinchalik mursak motam libosi sifatida belbog' bilan kiyilgan. Ayrim ayollar uni to'yga yoki mehmonga borganda ham kiyishganlar. Hozirgacha Toshkentda mursakni dafn marosimlarida tobut ustiga yopadilar.

1930-yillargacha patriarxat tuzum ramzi sifatida o'zbeklarda, ayniqsa, shahar aholisi orasida ayollar *paranji* yopinganlar.

Paranji soxta yengli, to'nsimon, uzun yoping'ichdan iborat bo'lib, otning dumi qilidan to'qilgan to'r parda *chachvon* betga tutilib, ustiga paranji yopilgan. Chachvon yuzni bekitib, belgacha yetgan. Uni odatda, uydan ko'chaga chiqqanda yopganlar, bayramlarda va uzoq safarga chiqqanda yopinganlar.



5 rasm. Paranji.

Qishloq joylarda paranji kam ishlatganlar. Ba'zi qishloqlarda ayollar uydan ko'chaga chiqqanda bola choponi yoki oq bekingich bilan yuzini bekitganlar. Shahrisabz va Samarqand viloyatida o'zbek urug'lari yo'l-yo'l matodan tikilgan chopon (jelak) yopinganlar. Uzun va tor soxta yengli yoping'ich – *ja'dani* Xorazm ayollari kiygan. Bunday yoping'ich Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida ham uchragan.



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yevropacha *kamzul* (kamzo'r) payda bo'lib, uni erkaklar ham ayollar ham kiyishgan. Erkaklarning kamzuli tik yoqali, uzunligi tizzagacha yetadigan, asosan, qora matodan tikilgan, ayollarning kamzuli rang-barang duxoba beqasamdan yoki beqasamdan tor belli qilib tikilgan. O'sha davrda butun O'zbekistonda yengsiz jiketka ham tarqala boshlagan, uni ko'ylak ustidan yoki kamzul ustidan kiyganlar. Ingliz kostyumiga uxshash jaket, yevropacha kostyum, palto va makishton kabi zamonaviy kiyimlar ziyolilar orasida tez tarqala boshlagan.

Qadim davrlardan bosh kiyimiga qarab, o'zbeklarni etnik va lokal guruhlariga farq qilingan. Erkaklar boshiga, asosan, turli xildagi *do'ppi* (to'ppi) kiygan, ayollar esa, ko'pincha, rang-barang *ro'mol* yopingan. Do'ppining dastavval tagini va gardishini ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda qavib qo'shib tikkanlar. Odatda, do'ppi nozik gulli, qadab tikiladigan, ayrim ayollarning do'ppisiga mayda munchoq, marjonlar, Xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do'ppilar Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda tarqalgan, hozirda esa

Shahrisabzda saqlangan. Ayniqsa, «bodom» yoki «qalampir» naqshli oq ipak ip bilan tagi qora matoga kashtalangan «chust do'ppi» nafaqat vodiylarda, balki undan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rang-barang to'pbarggul shakldagi Xo'jand-O'ratepa do'ppilari butun O'zbekistonda tarqalgan.

Xorazm ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli *taxyo* (do'ppi)ga ipdan yoki qush patidan popuk o'rnatib, tangalar osganlar. Taxyo ustidan, odatda, ro'mol yopinganlar. Bu yerda ro'mol turlari ko'p bo'lgan: mahalliy ustalar to'qigan oq takana naqshli serjun ro'mol, chetdan keltirilgan baku ro'mol, farang ro'moli va ipak ro'mol (chitkor gul bosgan), hokozolar.

Erkaklarning qadimdan kiyadigan bosh kiyimi *cho'girma* bir necha turda qo'y teridan tikilgan, qorako'l terisidan tikilgan sherozi popoq va qulochin keyinroq paydo bo'lgan.



6 rasm. do'ppilar.

Butun O'zbekiston bayramlarida «salla» o'rash ilgaridan shartli odat bo'lib kelgan. Ammo Farg'onaning ayrim tumanlarida va Xorazmda bayram bo'lsa-da, ba'zi kishilar salla o'rniga do'ppi yoki telpak kiygan, xolos. Sallani do'ppi yoki kuloh ustidan o'raganlar, rangi va o'rash uslubi bilan salla bir oz farq qilgan. Hozirda uni, asosan, qariyalar va dindor kishilar, ko'pincha marakalarda va diniy bayramlarda o'rab chiqadilar.

Salla o'rash o'zbek ayolining qadimiy bosh kiyimi hisoblangan. XIX asr oxirlariga kelib Samarqand, Toshkent va Andijonda bu odat qolib ketgan. Ko'pchilik ayollar uni o'ziga xos shakldagi maxsus bosh kiyimi – *lachak* ustidan

o'raganlar. Xorazmliklarning lachagi uzun matodan o'ralib, ko'krak va orqa tomonini bekitib turgan. Toshkentliklarga ham xuddi shunday bichimdagi lachak kiyilgan. Samarqandliklar lachakni uzunroq matodan bir oz boshqacha shaklda tikkanlar. Odatda, ilgari uydan tashqariga chiqilsa, ayollar salla ustidan mursak yoki uchburchak ro'mol shaklida oq yoki qizil ip matodan tikilgan *charchi* yopinib chiqqanlar.

Eski odatga binoan sallani ayol birinchi farzand ko'rgandan so'ng o'ray boshlagan. Keyingi vaqtlarda ona birinchi nabira ko'rganda, salla odati paydo bo'lgan. Salla o'rash maxsus irimlar bilan bog'liq bo'lib, qadimdan mavjud. O'zbek lachagiga o'xshash bosh kiyim *kimishek* nomi bilan qozoq va qoraqalpoqlarda ham ma'lum.

Ilgari qizlar va ayollar soch o'rami jiddiy farqlaganlar. Qizlar va kelinchaklarda (bola tuqqanigacha) qirq o'ram soch, Ayollar ikki o'ram soch qo'yish odat bo'lgan.


An'anaviy kiyimlarga xos taqinchoq va bezaklar yaqin davrlargacha saqlanib kelgan. Ilgari ko'pchilik ayollarning bosh va ustki kiyimlari zargarlik zeb-ziynat buyumlari bilan bezatilgan. Kiyim-kechaklarning yangilanishi taqinchoqlarning yo'qolishiga sabab bo'lgan.

Masalan, Farg'ona vodiysida bezak-ashyolar eng ko'p tarqalgan. Ularning har biri bir necha shaklda maxsus nomga ega: bo'yin va ko'krakka taqiladigan paykoncha, arpa jevak, zebigardon, nozigardon, tangajevak, tumor, bozvand, milla tumorcha, bo'yintumor, sochning ikki tomoniga taqib, ikki yelkaga tushirib oladigan zarkokil, orqaga taqiladigan tanga cho'lpi, peshonaga taqiladigan tillabargak, jig'a va har xil sochpopuklar kabilar.

Bolalarning kiyimi kattalarnikidan uncha farq qilmagan. Ammo bola tug'ilishi bilan unga ko'ylak kiygizish odatiga binoan unga yumshoq matodan *kipta*, *ko'ylakcha*, *kurtacha* tayyorlangan. Bunday ko'ylakni yetti uydan to'plangan matodan tikib bolaning chillasi chiqquncha kiygizish shart bo'lgan. Shuning uchun unga «chilla ko'ylak» deb nom berilgan.

Ko'p joylarda 6-7 yoshdan keyin o'g'il-qiz kiyimlari farqlana boshlagan. Diniy

maktablarda talabalari ruhoniylardek, mullacha yoki musulmon ko'ylaklar kiyganlar.



7 rasm. Bolalarning kiyimi.

XX asr boshlarida yoshlar orasida tik yoqali ro'g'ay yoqa, bug'ma yoqa ko'ylak kiyish odati paydo bo'lgan.

Oyoq kiyimlardan erkak va ayollar kiyadigan an'anaviy mahsi-kalish hozirgacha saqlangan. Ilgari kambag'allar charmdan tikilgan mukki oq etik kiyganlar, boy tabaqalarda yumshoq teridan tikilgan yevropacha etik va mahsi kiyilgan. Kalish (kovush) ham keng tarqalgan, uni o'zi yoki mahsi bilan kiyganlar. Keyinchalik rezina kalish paydo bo'lgach, eski kalish yo'qolib ketgan, ammo ayrim joylarda keksalarda hozir ham uchraydi.



8 rasm. Oyoq kiyimlar.

2.2.O'zbek milliy liboslarini tikishda ishlatiladigan matolar

O'zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip-gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi. Xomashyoning mo'lligi va arzonligi Movarounnahr shaharlarida ipak to'quvchilik, bo'z to'quvchilik, jun to'quvchilik va boshqa xil matolardan to'quvchilik kasb-hunarlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirdi.

To'quvchilikning, asosan, ikki turi: hammabop ip-gazlama to'quvchiligi va nisbatan qimmatbaho ipak to'quvchiligi ko'proq taraqqiy etgan. Ip-gazlama to'qish bilan, asosan, ayollar ipak va nimshoyi gazlamalarni, to'qish bilan esa eekaklar shug'illanganlar.

Ip-gazlama matolarning turlari va navlari juda xilma-xil bo'lgan. Ayniqsa oq, jigarrang, sariq tusli bo'zlar keng tarqalgan bo'lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun choponlar, shuningdek, ichki kiyimlar, sallalar tikilgan. Ayollarning ro'mollari, dakana va lachaklarini tikish uchun shosha doka ishlatilgan. Erkaklarning ko'ylaklari xom surup, sidirg'i chit, sodda to'qilgan, qalami deb nomlangan ip gazlamadan tikilgan. Yo'l-yo'l ip gazlama mato-olachalar ko'proq qishloq to'quvchilari tomonidan to'qilib, chopon tikishda ishlatilgan.

O'tmishda o'lkamizdagi butun-butun shaharlar faqat ma'lum bir nav va ranglardagi gazlamani to'qishga ixtisoslashgan edi. Badiiy to'quvchilikning mahalliy maktablari ham mavjud edi. Bularning bari matolarni bo'yash san'atining yuksakligi, mahalliy gazlama to'qish uslublari, ular qo'lidan chiqadigan matolar rangi-buyog'i va gullarining bir-biriga o'xshashligi, ular nafisligi bilan ajralib turadi.

Toshkent kosiblari bo'z yoki karbos (oddiy bo'yalmagan ip gazlama), bosma (ko'proq qizil tusdagi gulli bo'z), olacha (bo'yalgan ipdan to'qilgan yo'l-yo'l ip gazlama), chopon tikishda qo'llaniladigan yo'l-yo'l nim shoyi matolar to'qishga mohir edilar.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras,

adras) gazlamalar to'qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar o'ziga to'qroq, boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan.

Quyidagi mana shu matolarning ayrimlariga bir-ikki og'iz ta'rif berib o'tamiz:

Beqasam – yo'l-yo'l gazmol bo'lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to'nlar, ko'rpa-ko'rpachalar tikishda foydalaniladi.

Banoras – beqasamdan rang va turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo'lmish paranji tikilgan.

Paripashsha – beqasamdan qalinroq mato bo'lib, u paranji, shuningdek chopon tikishda ishlatilgan.

Adras – abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmoldir. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo'llanilgan.

Shoyi va nimshoyi matolar – beqasam, adras, yakro'yi, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrashoyi va hakoazolarga turli-tuman gullar solingan.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Russiyadan keltirilayotgan ip-gazlama va boshqa matolarning miqdori tobora orta bordi. Bu matolar O'rta Osiyo va Qashqar o'lkasida to'qiladigan gazlamalar bilan raqobat qila boshladi. Rossiya fabrikasi egalari O'rta Osiyo o'lkalari bilan savdo-sotiq qiluvchi savdogarlar bilan til biriktirib, mahalliy aholi didiga mos gazmollar ishlab chiqarishga astoyidil harakat qilib, bu yerdagi bozorlarda ustinlikka erishish uchun kurashni avj oldirdilar.

Rossiya mollari, jumladan, gazmollarining o'lkaga keltirilishi natijasida ular mahalliy hunarmandchilik mollarini bozordan siqib chiqara boshlaydilar. Fabrikada ishlangan matolar kosiblar qo'lidan chiqqan matolarning bozorini kasod qilib boraverdiki, bu hol o'lka xo'jaligining bozor ehtiyojlari uchun mol ishlab chiqarish sohasining umumiy taraqqiyoti jarayoni va natural xo'jalikning inqirozi bilan bog'liq edi.



XIX asr oxiri va XX asr boshida o'zbeklar orasida ham asosan fabrikada tayyorlangan ip gazlamalar: chit, bo'z, kolenkor, hom surupdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo'ldi. Boy-badavlat kishilaar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rang-barang muvutlardan kiyim tikirib kiya boshladilar.

Shunga qaramay kosiblar dastgohidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo'z, nimshoyi gazmol, adras, beqasam, podshoyi, kimxob, xonatlas, katakshoyi kabilarning turli xillariga ham ehtiyoj katta edi.

O'rta Osiyo gazmollarini ishlash va ularga gul solish texnikasi hiyla murakkab ish edi. Ularga gul-naqsh solishda ikki xil uslub, qo'llanilganki, bu esa yo'l-yo'l va abr uslubida to'qilar edi. XIX asrga kelib, yo'l-yo'l gul solingan matolar xillari keng rasm bo'lib ketdi. Ip gazlama, shoyi, nimshoyi gazmollarga shu uslubda gul solina boshlandi.

Mazkur turdagi gazlamalarni chiqaradigan to'quvchilik markazlari Samarqand, Urgut, Nurota, Buxoro, G'ijduvon, Zandona, Farg'ona vodiysida, Namangan, Bekariq tumanlarida mavjud edi. Xorazm ustalari tayyorlagan gazlamalar ham o'ziga xos gullari bilan ko'zga tashlanib turadi.

Matolarga gul bosishning usullaridan abrli iplar bilan gul solingan, bo'yoqlari yoyiq, qimmatbaho ipak gazlamalarni ishlab chiqarishda qo'llanilgan. Abrband usuli bilan iplarni o'rab-bog'lab qo'yishdan iborat mazkur murakkab va sermehnat jarayon asosan Farg'ona vodiysi shaharlari va Samarqand, Buxoroda xonatlas to'qishda qo'llanilgan.



9 rasm. Milliy matolarning turlari.

Bularning hammasi XIX – XX asrlarda mahalliy gazlamalarni badiiy bezash san'ati xilma-xilligi va o'ziga xos ekanligidan, O'rta Osiyo xalq xunarmandlarining nozik dididan dalolat beradi. Shu boisdan ham, to'quvchi ustalarning nafis va pishiq mahsulotlari mahalliy bozorlar chegarasidan chiqib, butun O'rta Osiyo va undan tashqari mamlakatlarga xarid qilinib, olib ketilgan va u yerlarda juda mashhur bo'lgan.

3- Bob. Bo'stonsaroy mehmonxonasida milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini tashkil etish

3.1. "Bo'stonsaroy" mehmonxonasi faoliyatini o'rganish

Samarqand shahri kundan kunga chiroy ochib go'zallashib bormoqda. Shu go'zallikni ko'rish uchun dunyoning barcha burchaklaridan turistlar tashrif buyurmoqdalar. Turistlarni bugungi kunda zamon talablariga asoslanib kutib oladigan mehmonxonalar ham shahrimizga anchani tashkil etadi. Shunday mehmonxonalardan biri «Bo'ston Turizm Servis» MCHJga qarashli "Bo'stonsaroy" mehmonxonasidir.

«Bo'ston Turizm Servis» MCHJ yuridik shaxs sifatida 2007 yil 28 mayda 0244- sonli raqam bilan Samarqand shahar hokimligidan ro'yxatdan o'tgan. «Bo'ston Turizm Servis» MCHJga qarashli "Bo'stonsaroy" mehmonxonasi Samarqand shahar Atoiy ko'chasi 14 uyda joylashgan.

«Bo'ston Turizm Servis» MCHJga Turizm sohasida faoliyat uo'rsatish va mehmonxona xizmati uchun 2009 yil 21 avgustda "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi tomonidan 565-09-sonli litsenziya berilgan.

«Bo'ston Turizm Servis» MCHJga qarashli "Bo'stonsaroy" mehmonxonasiga 2012 yil 19 sentyabrda "RX Servis" TMXSI tomonidan 007174 sonli muvofiqlik sertifikati berilgan. «Bo'ston Turizm Servis» MCHJga qarashli "Bo'stonsaroy" mehmonxonasida 34 o'rindan iborat. "Bo'stonsaroy" mehmonxonasi milliy uslubda qurilgan va jihozlangan. Mehmonxona oshxonasida mehmonlar uchun ertalabki nonushta tayyorlab beriladi. "Bo'stonsaroy" mehmonxonasida ishchi xodimlar hozirgi kunda 5 kishidan iborat. Mehmonxona xorijiy va mahalliy turistlarni qabul qilish va xizmat ko'rsatishga moslashgan. Mehmonxonada quyidagi servislar yo'lga qo'yilgan:



- yoʻldoshli televideniye



- dazmol maxsus xonalar uchun



- fen maxsus xonalar uchun



- mini-bar/ muzlatgich maxsus xonalar uchun



- telefon hamma nomerlar uchun



- sovutgich hamma nomerlar uchun



- doimiy xizmat koʻrsatish (24 soat mobaynida)



- har kunlik choyshablarni almashtirish



- chekmaydigan shaxslar uchun maxsus xona xizmatlari



- gazeta tarqatish xizmati



- suvenir doʻkoni



- tibbiy xizmat koʻrsatish



- taksi xizmatini chaqiritirish



- kimyoviy tozalash xizmati



- kir yuvish xizmati



- restoran



- valyuta almashtirish shaxobchasi



- mehmonxona seyfi



- jamoat joylaridagi sovutgichlar



- yuk tashish xizmati



- avtomobillar qo'yish joyi.

Mehmonxonaning keng hovlisi o'rtasida fontan qurilgan bo'lib, kechki payt milliy karavot ustida turistlar dam olib choy ichishlari uchun sharoitlar yaratilgan.

Nomerlar milliy uslubda bezatilgan bo'lib, devorlarida kashta, so'zanilar ilingan, ko'rpacha, yostiqlar qo'yilgan. Nomerlar asosan ikki o'rinli bo'lib, mavsum oylarida 20 dollardan 40 dollargacha narxi o'zgarib turadi.

Mehmonxonada Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Turkiya va Rossiya kabi davlatlardan ko'pgina turistlar tashrif buyurmoqda.

Hozirda mehmonxonada katta qurilish ishlari olib borilmoqda. Qurilish ishlari tugasa mehmonxona shinam, ikki qavatli 23 ta nomer 56 o'rindan iborat bo'ladi. Bundan tashqari 100 kishilik restoran ham turistlar xizmatida bo'ladi.

Mehmonxonada milliy kiyinish madaniyati va dizaynini tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud. Oilaviy mehmonxona bo'lganligi sababli barcha oila a'zolari milliy kiyimlarda yurishadi. Shahar markazidan chetroq, mahalliy aholi zich yashaydigan joyda joylashganligi sababli, to'y marosimlari, kelin sepini, to'y bola kiyimlarini turistlarga ko'rsatish uchun juda ham qulay sharoit mavjud.

Kechki payt turistlar dam olishini unumli o'tkazish uchun mehmonxona hovlisida milliy kiyimlarni kiyib sahna ko'rinishlarini tashkil etish mumkin.

3.2. Mehmonxonada «O‘zbekim liboslari» nomli dasturni tashkil etish

Mana bir necha yillardan buyon o‘zbek milliy liboslari o‘zining rang-barangligi bilan hammani o‘ziga jalb qiladi. Shuncha yillardan buyon o‘zligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning sababi esa millatning o‘z qadriyatlari, madaniyatidan uzoqlashmaganidadir. Endilikda bizning milliy liboslarimiz jahon miqyosida tanilib bormoqda. Bunga albatta turizmning hissasi katta.

Endi milliy liboslarimizni turizmdagi ahamiyatini gapiradigan bo‘lsak, albatta millatning madaniyatini o‘rganmasdan turizmni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniyatni esa milliy kiyimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har bir millatning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi, milliy kiyimi bo‘lganidek, albatta, o‘zbek millatining ham turli an‘analardan kelib chiqqan o‘ziga xos va mos milliy liboslari mavjud. Avvalo o‘zbek liboslari deganda ayollar atlas ko‘ylakda, boshida ro‘mol, erkaklar esa chopon va belbog‘da boshida do‘ppi kiygan kishi ko‘z oldimizga keladi. Har bir kelgan mehmon eng avvalo kelgan davlatining madaniyatini, ma‘naviyatini, kiyinish odobini ko‘zdan kechiradi, milliy kiyimlari bilan qiziqadi, kiyib ko‘rgisi keladi va harid qiladi. Bularning hammasi o‘z o‘rnida davlat haqida taassurotini belgilab beradi, keyinchalik esa reklama vazifasini bajaradi.

Bizga ma‘lumki, eng yaxshi va samarali reklama bu turistlarning o‘zi hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi va keyingi olingan taassurotlarning ahamiyati juda katta. O‘zbek milliy liboslari esa albatta yaxshi taassurot qoldirmasdan qo‘ymaydi. Chunki, o‘zbek milliy liboslari o‘zining rangi, naqshinkorligi, betakror matosi bilan boshqa millat milliy kiyimlaridan ajralib turadi.

Bir necha yillardan buyon dunyo dizayner modelerlarining o‘zbek milliy liboslariga, matolariga qiziqishi ortmoqda. Chet elda uni «tribal chik» deb nomlashadi. Unga ekzotik printlar va boshqa etnik elementlar qo‘shilgan. Hozirgi o‘zbek printi alohida trend sifatida tanilgan va «ikat» deb nomlashgan. Ikat bu printning o‘zi emas, balki uni bo‘yash usulidir. O‘zbek etnik elementlariga: aylana, rangli, har xil rangli naqshlar va bir matoning o‘zida ko‘pgina yorqin ranglar qatnashishi tushuniladi.

2005-yilning o‘zidayoq Amerika modasining asoschisi Oskar de la Rente o‘zining bahorgi kolleksiyasida bir necha «o‘zbek» ko‘ylaklari, yubka va shimlarni kiritdi. Bu printlar O‘zbekistonda yashovchi rassom Rasul Mirzaahmedov tomonidan o‘ylab topildi. 2007-yilda iste’dodli dizayner Nikolya Gesker moda uyi uchun yangi davrni belgilab berdi va podyumga o‘zbek printli ko‘ylak modelini chiqardi. Agar 2005-yilda unga oldin hech kim e’tibor qaratmagan bo‘lsa, 2008-yilga kelib de la Renta yana ikat bilan tajriba qilib ko‘rganidan so‘ng, mayin o‘zbek matolari gollivud yulduzlarini rom etdi va ular qizil yo‘laklarda o‘zbek printli ko‘ylaklarda chiqa boshladilar.



10 rasm. Gollivud yulduzlari milily matolarimizdan tikilgan kiyimlarda.

De la Rentaning omadli tajribasidan so‘ng Frida Djani – Guchchining kreativ direktori ham ushbu tajribani takrorlab ko‘rdi. 2010-yilgi Bahor-Yoz kolleksiyasida O‘zbekiston kiyinishi madaniyatini namoyish etdi. Albatta, buning hammasi o‘zbek kiyinishi madaniyati va dizayniga qiziqishni ortiradi va O‘zbekistonga turistlar oqimini ko‘paytiradi.



11 rasm. Mashxur dizaynerlar kolleksiyasi.

Endi O‘zbekistonning o‘zidan turib madaniyatimizni tanitib, turistlarni jalb qilayotgan projeklarni aytib o‘tsak. Bularga eng avvalo «El merosi» tarixiy kiyimlar teatrini aytib o‘tmasdan bo‘lmaydi.

«El merosi» teatri 2005-yildan beri faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Teatrning eng asosiy maqsadlaridan biri ajdodlarimizning kiygan kundalik, bayramona kiyimlari madaniyati haqida ma’lumot berish va vizual ko‘rsatishdir. O‘sha yildan beri «El merosi» muzeylarda saqlanayotgan va eskirib, yo‘qolib borayotgan liboslarni tiklab kelmoqda. Mana bir necha yildirki, bu teatr xalqimizning kiyinish madaniyati va dizaynini ko‘rsatuvchi shou dasturlari bilan turistlarni jalb qilib kelmoqda. Oxirgi yillarda teatr investitsiyasi 234 ming AQSH dollarini tashkil qilgan. Teatr bir necha shaharlarda gastrollari bilan bizning milliy liboslarimizni tanitib kelmoqda. Gastrollar Toshkent, Belgiya, Ispaniya, Fransiya, Germaniyalarda bo‘lib o‘tdi. Bu loyiha madaniyatimizga juda katta hissa qo‘shib kelmoqda. Teatr ko‘rinishlari 5 davr liboslarini o‘z ichiga oladi:

1. Skif jangchilarining jang kiyimlari;
2. Ahamoniylar davri liboslari (eramizdan avvalgi VIII asrlar)
3. Anaxitlar davri liboslari (eramizdan avvalgi VI asr)
4. Sug‘diylar davri liboslari (IV-VII asrlar)
5. Temuriylar davri liboslari (XIV-XV asr boshlari)



12 rasm. «El merosi» teatri.

Bu teatr bizning ajdodlarimizning liboslarini eng aniq qilib ko‘rsatib beradigan yagona shou dastur bo‘lib, chet el madaniyatshunoslarini, turistlarni

qiziqtirmay qo‘ymaydi.

Mehmonxonalarda ishlayotgan xodimlar salohiyatidan foydalangan holda «O‘zbekim liboslari» nomli milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini tashkil etish mumkin. Bu dasturni amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini qish oylarida ya’ni, turistlar oqimi kam bo‘lgan oylarda boshlash kerak bo‘ladi. Dasturni tayyorlash va namoyish etish jarayonida mehmonxona xodimlari salohiyatidan foydalanishning bir necha afzallik tomonlari mavjud:

- Mavsum bo‘lmagan oylarda xodimlarni ish bilan ta’minlanadi;
- Xodimlarning ish joyiga bo‘lgan qiziqishi ortadi;
- Mehmonxonada qo‘shimcha xizmatlar assortimenti oshadi;
- Mehmonxona uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘ladi;
- Yangi g‘oyalar, tashabbusni ro‘yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Eng avvalo ishni ishchi guruh tashkil etishdan boshlash kerak. Ularga rahbar qilib bir xodim tanlanadi. G‘oya o‘rtaga tashlanib “aqliy hujum” usuli yordamida har bir xodimning fikri, takliflari eshitiladi. Fikrlar umumlashtirib, qaror qabul qilinadi. Bu yerda har kimning vazifasi aniq taqsimlanishi kerak. Shundagina ishda mas’uliyat bilan yondashiladi.

Bir guruh xodimlar liboslar tarixi haqida ma’lumot to‘plasa, ikkinchi guruh dizaynerlik ishlarini, uchunchisi esa liboslar namoyishini tashkil etishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda oddiydan murakkabga qarab harakatlanish kerak. Eng avvalo Samarqand viloyati aholisining turli yoshdagi erkak va ayollarning kundalik, marosimlarda, kelin-kuyovning nikoh to‘yida, to‘y bolaning liboslari, dafn marosimida kiyinish madaniyatini namoyish etish mumkin. Keyingi bosqichda Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlarimizning kiyinish madaniyatini namoyish etish va tarixini so‘zlab berish mumkin. Xodimlar tomonidan ma’lum tajriba orttirilgandan so‘ng ushbu dastur mazmunini boyitish maqsadida milliy kiyimlarda urf odatlarni yoki ma’lum bir tarixiy voqeani sahnalashtirishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday milliylikni namoyon etuvchi dasturlar namoyishini tashkil etishdan avval albatta, tarixchi olimlar va boshqa mutaxassislar bilan maslahat qilinadi.

Milliy kiyinish dizaynini namoyish etishda respublikamizda o'z kolleksiyalari bilan nom qozongan dizayner modelerlarni taklif etish va ularning kolleksiyalarini mehmonxonada namoyishini tashkil etish mumkin.

Har bir inson o'z meyorida go'zallik shaydosidir. Atrof-muhitdagi ranglar, ko'rinishlar insonga zavq bag'ishlaydi, ko'nglini ko'taradi. Tabiatdagi yashil, och-ko'k, qizil ranglar insonni kayfiyatini ko'taradi, huddi shu ranglar o'zbek matolarida o'z aksini topgan. O'zbek kiyimlari matolarini ko'rgan inson kayfiyati ko'tarilib, atrof-muhitga boshqacha ko'z bilan qaraydi. Albatta kayfiyatsiz inson atrofdagi go'zallikni payqamaydi. O'zbek milliy liboslari ayollarga yanada jozibadorlik baxsh etib, tabiiy go'zallikni ko'rsatib beradi. Va yana shuni aytish kerakki, agarda turistlarga xizmat ko'rsatuvchi har bir hodim milliy libosda xizmat ko'rsatsalar, bizning milliyligimizni va kiyinish madaniyatimizni ko'rsatayotgan bo'ladilar. Ushbu ishlarni qilishdan maqsad esa albatta turistlarga chiroyli taassurot qoldirishdir. Bundan esa O'zbekistonning xalqaro maydonida tanilishi yanada tezroq sur'atlarda rivojlangan bo'ladi. Xalqaro maydonda tanilish esa albatta turistlar oqimini yana ko'payishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Turistlar oqimi esa iqtisodiyotni ko'taradi va yana eng asosiysi bu mavzuning maqsadi o'zbek milliy kiyinish madaniyati va dizaynini dunyoga tanitish.

Xulosa

Ishni shakllantirishda kuzatuv tadqiqotlari, to'plangan ma'lumotlarning tahlili natijalari bo'yicha quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- Mehmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, muayyan haq evaziga mehmonxona, motel, kemping, pansionat va boshqa joylashtirish vositalarida qisqa muddatli joylashtirishni tashkillashtirish bilan shug'ullanadi.

- Mehmonxonalar quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- belgilangan miqdordan oz bo'lmagan xonalardan iborat, yagona boshqaruvga ega;

- turli hildagi mehmonxona xizmatlarini taqdim etadi;

- ko'satayotgan xizmatlari, ihtiyoridagi jixozlanish va davlat standartlariga ko'ra kategoriya va sinflarga ajratiladi;

- Turistlarning hayoti xavfsizligi va buyumlarining saqlanish kafolati xalqaro miqiyosda va davlatlar hududlarida harakatlanish xavfsizligidagi juda ko'p majmualiy tadbirlarning qonun himoyasida ta'minlanishni talab qiladi.

- inson eng avvalo ilk taassurotini tashqi ko'rinishdan oladi. Bu taassurot inson yoki hudud haqida fikrning rivojlanishiga asos bo'ladi.

- o'zbek milliy kiyinish madaniyati va dizayni o'zining betakrorligi, yorqin ranglari bilan boshqa millat liboslaridan ajralib turadi. Undan mehmonxona sohasi xizmatlari, daromadini oshirish maqsadida to'g'ri foydalanish - xalqimiz ma'naviyati, madaniyati hamda milliy qadriyatlarini turistlarga tanitishga, unga nisbatan hurmat va ehtiromni yuksaltirishga safarbar bo'lmog'i lozimdir.

Tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ishining natijalari va xulosalaridan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- respublikamizda millat, xalqning o'ziga xos milliy merosi, madaniyati, san'atidan foydalangan holda mehmonxonalarda xizmatlar assortimentini oshirish;
- mehmonxonalarda ishlayotgan xodimlar salohiyatidan foydalangan holda milliy kiyinish madaniyati va dizayni namoyishini va shunga o'xshash milliy madaniyatimizni namoyon etuvchi dasturlarni tashkil etishda jalb qilish.
- Har bir mehmonrxonada mahalliy kiyimlar namunalaridan ko'rgazmalarni tashkil etish yoki savdosini yo'lga qo'yish;
- Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar milliy liboslarda kiyinishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.
- mehmonxona menejerlari va turoperatorlar bu yo'nalishda o'z malakalarini oshirib borishlari zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"// Xalq so'zi. 2014.
2. Amriddinova R.S. «Mehmonxona servis xizmati» (Ma'ruza matni). SamISI, 2008.
3. Durovich A.P. Organizatsiya turizma, Moskva, 2005.
4. Jabborov I. « O'zbeklar». Sharq nashriyoti, Toshkent 2007.
5. Ibadullayev N. O'zbekistonning turistik resurslari. Samarqand, 2008.
6. Mamatqulov X. Xalqaro turizm, Samarqand, 2008.
7. Mahmud S. «O'zbek udumlari».Cho'lpon nomidagi nashriyot,Toshkent 2007.
8. Nabiyeva S.A. , Axmedov I.A. Ekskursiyashunoslik, Toshkent, 2005
9. Samadov A.I. , Eshmurodov S.T., Reklama faoliyatini tashkil etish. Toshkent , 2006.
10. Sodiqova N. «O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar». Sharq nashriyoti, Toshkent 2003.
11. Tuxliyev I.S. Hayitboyev R., Ibadullayev N, Amriddinova R. Turizm asoslari. Samarqand, 2010.
12. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari.- Samarqand, 2008.
1. Internet saytlari:
<http://www.tourism.uz/>
<http://www.tour.uz/>
www.sharqtaronalari.com

